

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAHSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix FAKULTETI

403 -guruhi talabasi Sapaev Tohirjonning

**5111600 “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo`nalishi
bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Saylov jarayonida OAV roli.

Ilmiy rahbar:

dots. A.Abdullaev

Urganch 2015 yil

1-ilova. Bitiruv malakaviy ishining titul varag'i

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix
(fakultet nomi)

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
(kafedra nomi)

Saylov jarayonida OAV roli.
(bitiruv malakaviy ish mavzusining nomi)

Bajaruvchi: **Sapaev Tohirjon**

Rahbar : **dots. A.Abdullaev**

Urganch shahri
2015-yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix

(fakultet nomi)

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

(kafedra nomi)

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO'YICHA

TOPSHIRIQLAR REJASI:

Talaba. Sapaev Tohirjonga Universitet rektorining «208 T 1&»-sonli 17 dekabr 2014 yil buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun "Saylov jarayonida OAV roli." mavzusi tasdiqlangan.

2. Kafedra majlisining qaroriga binoan. A.Abdullaev

bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi: Bitiruv malakaviy ish-Kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraf, Hulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlaridan, Oliy Majlis palatalari yig'ilishlari materiallaridan, mavzuga oid ilmiy maqola, risola, monografiyalardan, matbuot va internet materiallaridan olindi.

5. Bitiruv malakaviy ishga _____

_____ **ilova qilinadi.**

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

<i>№</i>	<i>Bajarilgan ishning mazmuni</i>	<i>Bajarish muddati</i>
1.	Ishning rejasini tuzish va adabiyotlar izlash.	2014 yil dekabr
2.	Materiallar izlash	2015 yil yanvar
3.	Ishning kirish qismini tayyorlash	2015 yil fevral
4.	I-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va tahlil qilish	2015 yil mart
5.	II-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va tahlil qilish	2015 yil aprel
6.	Ishning hulosasini tayyorlash	2015 yil may
7.	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatini tuzish	2015 yil may

Bitiruv malakaviy ish rahbari: dots. A.Abdullaev

Bajaruvchi talaba: Sapaev Tohirjon

2014 yil «6» dekabr

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2014 yil tasdiqlandi
(«6»- sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri: t.f.n. U.Sherpov

(imzo)

**BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA RAHBARINING
MULOHAZALARI**

Talaba: Sapaev Tohirjon

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: “Saylov jarayonida OAV roli”.

Bitiruv malakaviy ish hajmi: 87 sahifa

Tushuntirish qismi: 67 sahifa

Ilovalar soni: -

Mavzuning dolzarbligi: Har qanday demokratik huquqiy davlatning jahon miqyosidagi nufuzi ko'p jihatdan shu davlatda saylovchilarning qay darajada ochiq va oshkora amalga oshirilishiga bog'liq. Binobarin, erkin va adolatli saylovlar nafaqat fuqarolarning o'z ovozlari berish imkoniyati ta'minlanganligi, balki ularning tegishli nomzodlar va umuman butun saylov jarayoni to'g'risidagi axborotlarga bo'lgan huquqlarini kafolatlashga ham bog'liq.

Bitiruvchi umumkasbiy va mahsus tayyorgarligining tavsifi: Sapaev Tohirjon barcha fanlarni to'la o'zlashtirib, ularni amaliyotga qo'llash ko'nikmasiga ega. Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, mahsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shahsiy xususiyatlari Sapaev Tohirjon o'zi mustaqil ishlay oladi, mahsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyatiga ega. O'zining mutahassisligi bo'yicha mustaqil ishlashga layoqatli, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, o'z ustida muntazam ishlaydi. Muomulasi yahshi, ishga mas'uliyat bilan yondashadi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Ishning materiallaridan umumta'lim maktablari, o'rta mahsus kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va Oliy o'quv yurtlarida Ijtimoiy-Gumanitar fanlarni o'rganishda hamda ma'naviy-ma'rifiy

tadbirlarda muhim manba sifatida foydalanish mumkin. Mazkur materiallardan saylov kampaniyasi davrida targ'ibotchilar uchun yordam materiali sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi.

Ish to'la talabga javob beradi. Uning materiallaridan amaliyotda keng foydalanish mumkin

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

dots. A.Abdullaev

(f.i.sh.)

2015 yil «25» may

Urganch davlat universiteti

Tarix fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishining

Bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi. "Saylov jarayonida OAV roli".

Malakaviy ishning hajmi. 12 ming so'zdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 67 sahifadan iborat

b) ilovalar soni: _____

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi.

Ishning mavzusi dolzarb, berilgan topshiriqqa mosdir

Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati. Ishning kirish qismida dolzarbligi, ilmiy o'rganilganlik darajasi, metodologik asosi va muhim manbasi, maqsad va vazifalari, amaliy ahamiyati, tarkibiy tuzilishi va hajmi o'z aksini topgan bo'lib, to'la talabga javob beradi.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-tehnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi. Bitiruv malakaviy ishda ilmiy adabiyotlardan, innovatsion yutuqlar natijalaridan, prezident asarlaridan keng foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi. Ishda mavzuga oid barcha ma'lumotlar umumlashtirilgan va tahlil qilingan. Ish ilmiy uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan to'la asoslab berilgan.

Amaliy ahamiyati ham ko`rsatilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari. Ishda mavzuning ilgari kitoblarda aks ettirilmagan jihatlari ko`rsatib berilgan. Ishning materiallari va tavsiyalardan ta'lim sohasida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o`rganishda hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda muhim manba sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar. Ishda ayrim texnik kamchiliklar va juz'iy orfografik hatolar mavjud. Ular ishning ahamiyatini pasaytirmaydi.

Taqrizchi: Sobirov Mansur Urganch tuman 2-son umumiy o`rta ta'lim maktabi o`qituvchisi

2015 yil «31» may

5-ilova

Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari

№	Baholanadigan bo`limlar	Eng yuqori ko`rsatkich ball hisobida
1	BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos holda bajarilishi	35
3	“Hulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo`yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma`ruza (ahborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e`tiborga olingan holda baholash mezonlariga o`zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

6-ilova

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishining bitiruvchisi
Sapaev Tohirjonning **“Saylov jarayonida OAV roli”** mavzusida bajarilgan bitiruv
malakaviy ishi DAK ning «_____» 2015 yil «_____iyun» dagi majlisida himoya
qilinadi.

**Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi
o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.**

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos holda bajarilishi	35	
3	“Hulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	
7	Himoyaga ish mazmunini bayon hila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (ahborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	
Jami:			

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. **“Saylov jarayonida OAV roli”** mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun
_____ lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilanish va «_____» deb baholansin.

2. _____

— DAK raisi: _____

A'zolari: _____

_____ 2015 yil «_____» _____

Urganch davlat universiteti Tarix Fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası

Bitiruv malakaviy ish _____sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: Sapaev Tohirjon

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: “Saylov jarayonida OAV roli”

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi: dots. A.Abdullaev

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2015 yil «29» mayda o'tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib Sobirov Mansur tayinlandi.

Kafedra mudiri:

t.f.n. U.Sheripov

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:

t.f.n. O.Shihov

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 5111600 ta'lim bakalavr

Tasdiqlayman
fakultet dekani

“ ____ ” _____ 2015 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba : Sapaev Tohirjon

Ishning mavzusi: “Saylov jarayonida OAV roli”

«17 noyabr 2014 yil universitet rektorining 189 T 1& sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: “ ____ ” _____ 2015 y.

3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yhati.

- 1.Nurmatov N, Qosimova N. Saylov jarayonlarini yoritishda ommaviy axborot vositalarining roli. Toshkent, “O'zbekiston”, 2014 y
- 2.Nurmatov N. Ommaviy axborot vositalarining saylov kampaniyasidagi o'rni va ahamiyati. Demokratlashtirish va inson huquqlari. 2014 y. 3 son. 33-37 betlar
- 3.Yoqubov Sh, Ahmedov T. Saylovoldi tashviqoti. Toshkent, “O'zbekiston” 2014 y
- 4.Abdullaev J. Saylov va ommaviy axborot vositalari. T. 2007y.
- 5.Hidirov Q. Ochiqlik, haqqoniylik va holislik. Halq so'zi. 2014 y. 30 sentabr
- 6.Najimov M. Saylovlar jarayonida ommaviy axborot vositalarining ishtiroki. Turkiston. 2009 y. 18 noyabr
- 7.G'ulom Mirzo, Hidirov S. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi va ommaviy axborot vositalari. Toshkent, “O'zbekiston”, 2007 y
- 8.G'ulom Mirzo. Saylovlar va ommaviy axborot vositalari. T. 2004 y
- 9.Damanova Sh. Muhim siyosiy jarayon: demokratik tamoyillar asosida o'tishida ommaviy axborot vositalarining o'rni beqiyos. Milliy tiklanish. 2014y. 16 iyul
- 10.Abduazizova N. Ommaviy axborot vositalarini yanada liberallashtirish. Jamiyat va boshqaruv. 2005 y. 2 son

4. Ishning maqsadi: Ishda mavjud materiallar asosida saylovlar jarayonini yoritishda ommaviy axborot vositalarining rolini atroflicha yoritish asosiy maqsad hisoblanadi.

5. Chizma materiallar ro'yhati: _____

6. Maslahatchilar: _____

Bo'limlar	Maslahatchi F.I.Sh.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi

Ishga taqriz yozuvchining F.I.Sh., ilmiy darajasi, unvoni:

Sobirov Mansur Urganch tuman 2-son umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

7. Ilmiy rahbar: dots.A.Abdullaev

BMI bajaruvchi talaba: Sapaev Tohirjon

Kafedra mudiri: t.f.n. U.Sheripov
 (F.I.Sh.)

 (imzo)

MUNDARIJA

Kirish.....	15-19
I. Bob Saylov va Ommaviy axborot vositalari.	
1.1 O`zbekistonda saylov tizimining hukukiy asoslari	20-36
1.2 Ommaviy axborot vositalarining Siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari.....	37-48
II. Bob Saylov jarayonlarini yoritishda ommaviy axborot vositalarining roli.	
2.1 Ommaviy axborot vositalarida saylov kampaniyasini yoritishning huquqiy asoslari.....	49-60
2.2 O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, halq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari deputatlari va O`zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlarining ommaviy axborot vositalarida yoritilishi.....	61-82
Xulosa.....	83-84
Foydalanilgan adabiyotlar.....	85-87

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Har qanday demokratik huquqiy davlatning jahon miqyosidagi nufuzi ko'p jihatdan shu davlatda saylovchilarning qay darajada ochiq va oshkora amalga oshirilishiga bog'liq. Binobarin, erkin va adolatli saylovlar nafaqat fuqarolarning o'z ovozlari berish imkoniyati ta'minlanganligi, balki ularning tegishli nomzodlar va umuman butun saylov jarayoni to'g'risidagi axborotlarga bo'lgan huquqlarini kafolatlashga ham bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Saylovlar – bu mamlakatimizda amalda bo'lgan huquqiy normalarning nechog'liq demokratik ruhda eknini namoyon etadigan, demokratik huquqiy davlatning uzviy belgisi, halqning o'z hohish irodasini erkin ifoda etishning, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining asosiy shakli bo'lib, o'ta muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega masaladir".¹

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konueptsiyasida qayd etilganidek, axborot erkinligini ta'minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini kishilar o'z fikr va g'oyalarini, sodir bo'layotgan voqealarga o'z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki haqida so'z yuritib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilishga, saylovlarning axborot ta'minoti sohasida saylov jarayoni barcha ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratadi. Markaziy saylov komissiyasining ommaviy axborot vositalari bilan hamkorligining asosiy vazifasi saylovchilarning saylovlarda erkin ishtirok etishi, siyosiy partiyalar va nomzodlarning saylovoldi dasturlari bilan atroflicha tanishishi, ovoz berish kuni ongli ravishda qaror qabul qilishi zarur shart-sharoit yaratishdir.

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish a fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konueptsiyasi. Toshkent, "O'zbekiston". 2010 y 35 bet

Saylov jarayonini yoritishda ommaviy axborot vositalarining roli nihoyatda katta bo'lib, ular bir tomondan, saylovchilarni saylov jarayonlarining borishi haqida habardor qilsa, ikkinchi tomondan, saylovoldi tashviqotini olib borish, nomzodlarni tashviq qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari vakillari milliy va xalqaro kuzatuvchilar, ishonchli vakillar, saylov shtablarining vakillari bilan hamkorlikda saylov jarayonining oshkoraligi va shaffofligini ta'minlab, aholini saylov natijalari bilan tanishtiradilar.

Demak, O'zbekiston Respublikasida saylovlarning demokratik tamoyillarga asoslangan holda o'tkazilishida jurnalistlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklatiladi. Ommaviy axborot vositalari keng jamoatchilikni saylov jarayonlari to'g'risida izchil va tizimli tarzda habardor qilib berishi bilan birga, deputatlikka nomzodlar va ularni ko'rsatgan siyosiy partiyalarning saylovoldi dasturlarini elektoratga etkazishda minbar vazifasini ham bajaradi. Ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyati institutlaridan biri sifatida saylov o'tkazish jarayoni ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatadi.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonunning saylov tashviqotiga oid 171-moddasida alohida qayd etilganidek, saylovoldi tashviqoti ommaviy axborot vositalari, shuningdek, televidenie, umumiy foydalanishdagi axborot- telekommunikatsiya tarmoqlari, shu jumladan, Internet orqali amalga oshiriladi.¹ Ommaviy axborot vositalarining saylov jarayonidagi asosiy faoliyat yo'nalishlari quyidagilardan iborat.

1.Ma'naviy-mav'rifiy yo'nalish. Bunda saylovlarning mazmun-mohiyati, ahamiyati, shakllari hamda ibratli jihatlari horijiy tajribalarda keng yoritiladi.

2.Qonunchilik targ'iboti. Saylovchilarning huquq va majburiyatlari, saylov to'g'risidagi qonunchilik, undagi o'zgarish va yangilanishlar haqida ma'lumot beriladi.

3. Axborot tarqatish yo'nalishi. Saylovga tayyorgarlik jarayoni ommaviy axborot vositalari orqali yoritib boriladi. Seminar-treninglar, forumlar, davra suhbatlari, konferentsiyalar tafsiloti haqida saylovchilar habardor qilib boriladi.

¹ O'zbekiston Respublikasining saylov to'g'risidagi qonunlari. Toshkent, "Adolat" 2014 y. 61 bet

4.Saylovoldi tashviqoti. Siyosiy partiya yoki deputatlikka nomzodlarning saylovoldi dasturlari targ'ib qilinadi. Bu muhim jarayon saylovchilarning muayyan partiya saylovoldi dasturini, muayyan nomzodni yoqlab yoki qarshi ovoz berishiga turtki bo'ladi.

5.Saylov jarayoni tahlili. Saylov jarayoni bilan bog'liq jihatlar keng yoritiladi, unda saylovga tayyorgarlikning borishi, amalga oshirilayotgan ishlar, saylov natijalari tahlil qilinadi.

6.Jamoatchilik nazorati yo'nalishi. Saylovlarning ochiq, oshkora va qonuniy o'tishiga yordam ko'rsatiladi.¹

Ma'lumki, saylov jarayoni bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Nomzodlarni ilgari surish, nomzodlarning ishonchli vakillarini ro'yhatdan o'tkazish, imzolar yig'ish, nomzodni ro'yhatdan o'tkazish birinchi bosqich bo'lsa, ikkinchi bosqich- ommaviy axborot vositalarida nomzodlarning saylovoldi tashviqotini o'tkazish, saylovchilar bilan uchrashuvlar tashkil etish, bosma tashviqot materiallarini tarqatishni o'z ichiga oladi. Keyingi bosqichlar saylov va ovozlarni sanash, saylov natijalarini aniqlagan holda, ularni rasmiy ravishda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilishdan iborat. Ushbu bosqichlarni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari vakillari faol qatnashib, saylovoldi tashviqotni o'tkazishda nomzodlarni ilgari surish va ro'yhatdan o'tkazish, saylov kuni saylov jarayoni va ovozlarni sanash, saylovdan so'ng uning natijalariga oid ma'lumotlarni to'playdilar.

Ma'lumki, fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o'z shahsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o'zida mujassam etgan bo'lib, bu O'zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhim sharti, ta'bir joiz bo'lsa, tamal toshi hisoblanadi.

Mamlakatimizda o'tgan yillar davomida ayniqsa, ohirgi 10 yilda ommaviy axborot vositalarini yanada liberallashtirish, so'z erkinligini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Yurtimizda, avvalo, ommaviy axborot vositalari rivojini ta'minlaydigan,

¹ Nurmatov N. Qosimova N. Saylov jarayonlarini yoritishda ommaviy axborot vositalarining roli. Toshkent. "O'zbekiston", 2014 y. 4-5 betlar

demokratik talab va standartlarga to'la mos keladigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi.

Shu nuqtai nazardan saylov jarayonida ommaviy axborot vositalarining rolini o'rganish hozirgi davrning eng dolzarb mavzusi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi va muhim manbasi. Ishni tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning asarlari metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, mavzuga oid ilmiy maqolalar, monografiyalar, ommaviy axborot vositalari hamda internet materiallari ishning muhim manbasi hisoblanadi. Ishda barcha ma'lumotlar tahlil qilingan va umumlashtirilgan.

Mavzuning ilmiy o'rganilganlik darajasi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda bir necha marta saylovlar o'tkazildi. Axborot sohasini isloh qilish bo'yicha keng miqyosli ishlar amalga oshirildi.

Istiqlol davrida saylov jarayonida ommaviy axborot vositalarining rolini oshirishga oid ko'plab ilmiy maqola, risola va monografiyalar chop qilindi.

Ular quyidagilar: N.Nurmatov, N.Qosimova,¹ N.Nurmatov², Sh.Yoqubov, T.Ahmedov³, J.Abdullaev⁴, Q.Hidirov⁵, M.Najimov⁶, G'ulom Mirzo, S.Hidirov⁷, G'ulom Mirzo⁸, Sh.Damanova⁹, N.Abdualazizova¹⁰ va boshqalar.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi va muhim manbasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Eng asosiy mezon-hayot haqiqatini aks ettirish" (2009 y), "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" (2010 y) asarlarida axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash,

¹ Nurmatov N, Qosimova N. Saylov jarayonlarini yoritishda ommaviy axborot vositalarining roli. Toshkent, "O'zbekiston", 2014 y

² Nurmatov N. Ommaviy axborot vositalarining saylov kampaniyasidagi o'rni va ahamiyati. Demokratlashtirish va inson xuquqlari. 2014 y. 3 son. 33-37 betlar

³ YOqubov SH, Axmedov T. Saylovoldi tashviqoti. Toshkent, "O'zbekiston" 2014 y

⁴ Abdullaev J. Saylov va ommaviy axborot vositalari. T. 2007y.

⁵ Xidirov Q. Ochiqlik, xaqqoniylik va xolislik. Xalq so'zi. 2014 y. 30 sentabr

⁶ Najimov M. Saylovlar jarayonida ommaviy axborot vositalarining ishtiroki. Turkiston. 2009 y. 18 noyabr

⁷ G'ulom Mirzo, Xidirov S. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi va ommaviy axborot vositalari. Toshkent, "O'zbekiston", 2007 y

⁸ G'ulom Mirzo. Saylovlar va ommaviy axborot vositalari. T. 2004 y

⁹ Damanova SH. Muhim siyosiy jarayon: demokratik tamoyillar asosida o'tishida ommaviy axborot vositalarining o'rni beqiyos. Milliy tiklanish. 2014y. 16 iolb

¹⁰ Abdualazizova N. Ommaviy axborot vositalarini yanada liberallashtirish. Jamiyat va boshqaruv. 2005 y. 2 son

fuqarolarning saylov huquqi erkinligini ta'minlash, saylov qonunchiligini rivojlantirish, jurnalistlar oldida turgan muhim vazifalar, Ommaviy axborot vositalarining jamiyatimiz hayotidagi roli atroflicha yoritib berilgan. **Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari.** Ishda mavjud materiallar asosida saylovlar jarayonini yoritishda ommaviy axborot vositalarining rolini atroflicha yoritish asosiy maqsad hisoblanadi. Asosiy maqsaddan kelib chiquvchi vazifalar quyidagilar:

- O'zbekistonda saylov tizimining huquqiy asoslarini atroflicha yoritib berish;
- Ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslarini yoritish;
- Saylov jarayonlarni yoritishda ommaviy axborot vositalarining rolini ko'rsatish;
- Ommaviy axborot vositalarida saylov kamponiyasini yoritishning huquqiy asoslarini yoritish;
- Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, halq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari deputatlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlarining ommaviy axborot vositalarida yoritilishini o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Ishning materiallaridan umumta'lim maktablari, o'rta mahsus kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va Oliy o'quv yurtlarida Ijtimoiy-Gumanitar fanlarni o'rganishda hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda muhim manba sifatida foydalanish mumkin. Mazkur materiallardan saylov kampaniyasi davrida targ'ibotchilar uchun yordam materiali sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Ish- Kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraf, huloa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat bo'lib, uning hajmi 87 sahifani tashkil etadi.

I. Bob Saylov va Ommaviy axborot vositalari.

1.1 O`zbekistonda saylov tizimining huquqiy asoslari

Erkin saylov va o`z hohish irodasini erkin bildirish printsiplari, birinchi navbatda har bir shahsning davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish bo`yicha konstitutsiyaviy huquqi milliy davlatchiligimiz modelining asosini tashkil etadi. “Saylovlar- bu mamlakatimizda amalda bo`lgan huquqiy normalarning nechog`lik demokratik ruhda ekanini namoyon etadigan, demokratik huquqiy davlatning uzviy belgisi, halqning o`z hohish-irodasini erkin ifoda etishning, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining asosiy shakli bo`lib, o`ta muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega masalalar”, -deydi yurtboshimiz.¹

Shu munosabat bilan o`tgan davr mobaynida yurtimizda samarali, demokratik saylov tizimini shakllantirish va rivojlantirish sohasida g`oyat chuqur o`zgarishlar amalga oshirilganini ta`kidlash o`rinlidir.

Ma`lumki, Konstitutsiyamizga, shuningdek, “Saylovchilar huquqlarining kafolatlari to`g`risida”gi hamda yangi tahrirdagi “O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g`risida”, “Xalq deputtalari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to`g`risida”, “O`zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to`g`risida”gi qonunlarga 2003 va 2008- yillarda tegishli o`zgartish va qo`shimchalar kiritildi.

Shu bilan birga, ushbu davrda mazkur sohaga oid qo`plab qonun hujjatlari qabul qilindi. Bularning barchasi milliy saylov tizimining izchil va bosqichma-bosqich liberallashtirishini, ikki palatli parlament saylovlarining qonun talablari va umume`tirof etilgan halqaro printsiplari va normalarga to`la mos holda o`tkazilishini ta`minlaydigan mukammal qonunchilik bazasining shakllanishiga olib keldi.

Mamlakatimiz Prezidenti ta`kidlaganidek, “demokratiyaning eng muhim printsiplari-odamlarning saylov huquqini, o`z hohish irodasini erkin ifodalash, o`z manfaatlarini ro`yobga chiqarish va himoya qilish huquqini ta`minlash uchun

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik isloxlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent. “O`zbekiston”, 2010 y. 35 bet

haqiqiy shart-sharoit, qonuniy-huquqiy zamin yartaib berish lozim”.¹ Darhaqiqat mustaqillik yillarida saylovlarning huquqiy asosini belgilab beruvchi qonuniy asoslari yaratildi.

O'zbekistonda saylov huquqining asosiy manbai Konstitutsiyadir. Boshqa qonun hujjatlari esa, shu konstitutsiyaviy asosdan kelib chiqib qabul qilinadi.

Konstitutsiyamizda O'zbekiston Respublikasida “xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai” ekanligi (7-modda) hamda jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari halq muhokamasiga taqdim etilishi (9- modda) belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimizda davlat hokimiyati halq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi.

Konstitutsiyamizning 10-moddasiga binoan, “O'zbekiston halqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin.

Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shahs O'zbekiston halqi nomidan ish olib borishga haqli emas”.

Konstitutsiyamizning 117-moddasiga binoan, “O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati va vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir oovzga ega. Ovoz berish huquqi, o'z hohish irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi”.

O'zbekistonda har bir fuqaro siyosiy huquqini saylov orqali amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'zlari saylab qo'ygan vakillari, Prezident, vakillik organi bo'lmish oliy qonun chiqaruvchi organ- Oliy Majlis, halq deputatlari tegishli Kengashlari orqali davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etadilar.

Ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy ahvoliga, irqiy yoki milliy mansubligiga, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabatiga, mashg'ulot turi va hususiyatiga qarab O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining saylov huquqini biron-

¹ I.A.Karimov Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7 tom.-T: “O'zbekiston”, 1999y. 380 bet

bir tarzda bevosita yoki bilvosita cheklash taqiqlanadi.¹

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Saylov tizimi deb nomlanuvchi mahsus XXIII bobi bitta, ya'ni 117-moddadan iborat bo'lsa-da, unda quyidagi muhim konstitutsiyaviy normalar mustahkamlangan : "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z hohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi".²

Saylov tizimini konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarining yaratilishi davri (1991-2000yy)- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi hamda bir palatali Oliy Majlisni ko'ppartiyaviylik asosida shakllantirish bilan bog'liq davrni o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda halqaro huquq andozalari va talablariga, horijdagi ilg'or tajriba va milliy-tarixiy an'analarimizga hamda Konstitutsiyamizga mos saylov qonunchilik tizimi yaratildi. Milliy saylov qonunchilik tizimi yaratildi. Milliy saylov qonunchiligi tizimining yaratilishi va rivojlanishini quyidagi uch asosiy bosqichiga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi bosqich (1991-1995 yy)- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi hamda bir palatali Oliy Majlisni ko'ppartiyaviylik asosida shakllantirish bilan bog'liq davrni o'z ichiga oladi.

Bu davrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi (1991 yil 18 noyabr), O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992 yil 8 dekabr), O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida"gi (1993 yil 28 dekabr), "Halq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi (1994- yil 5- may), "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi (1994- yil 5- may) qonunlarning qabul qilinishi bilan umume'tirof etilgan printsiplarga mos ko'ppartiyaviylikka asoslangan, muqobil saylovlarni

¹ O'zbekiston Respublikasining saylov to'g'risidagi qonunlari. Toshkent, "Adolat". 2014 y 12-13 betlar

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent, «O'zbekiston», 2014y 35 bet

³ O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun// O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1994. №10. 250 modda

tashkil etishning huquqiy bazasi yaratildi. Jumladan, 1994- yil 5- mayda muhim hujjat- “Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to’g’risida”gi qonunning qabul qilinishi bilan fuqarolarga saylov huquqlarini amalga oshirish va ularning o’z hohish-istaklarini erkin ifodalash mehanizmi joriy etildi.

Ikkinchi bosqich (1995-2000yy)- birinchi bosqich davrida milliy saylov qonunchiligi asosida o’tkazilgan parlament saylovlarida to’plangan amaliy tajribaga muvofiq, saylov tizimining demokratik asoslarini mustahkamlash va qonunlarga tegishli o’zgartishlar kiritish kabi tadbirlarni o’z ichiga oladi.

Saylov jarayonining muhim sub’ektlari sanalgan siyosiy partiyalar faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi O’zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to’g’risida”gi qonuni 1996 yilning dekabrda qabul qilindi.¹

Uchinchi bosqich (2000-2010 yy)- mamlakatimizda faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri bo’lib, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilishda muhim rol o’ynadi.

Saylov tizimini huquqiy asoslarini yanada rivojlantirish, liberallashtirish va saylov amaliyotini takomillashtirish davri (2000-2010yy)- bu muddat mamlakatimizda faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri bo’lib, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilishda muhim rol o’ynagan jarayonlarga boy bo’ldi. Bu davr bevosita ikki palatali parlament tizimiga o’tish bilan bog’liq saylov qonunchiligining tadrijiy taraqqiyotiga asoslangan uchinchi bosqichning asosiy mazmun mohiyatini tashkil etadi.

Mamlakatimiz Prezidenti ta’kidlaganidek, “demokratiyaning eng muhim printsiplari-odamlarning saylov huquqini o’z hohish-irodasini erkin ifodalash, o’z manfaatlarini ro’yobga chiqarish va himoya qilish huquqini ta’minlash uchun haqiqiy shart-sharoit, qonuniy-huquqiy zamin yaratib berishi lozim”². Darhaqiqat,

¹ O’zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 dekabrda qabul qilingan “Siyosiy partiyalar to’g’risida”gi qonun// O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1997, №2, 36 modda

² I.A.Karimov . Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. 7-tom. T: “O’zbekiston”, 1999. 380 bet

mustaqillik yillarida saylovlarning huquqiy asosini belgilab beruvchi qonuniy asoslar yaratildi..

O'zbekistonda saylov huquqining asosiy manbai Konstitutsiyadir. Boshqa qonun hujjatlari esa, shu konstitutsiyaviy asosdan kelib chiqib qabul qilinadi.

O'zbekistonda har bir fuqaro siyosiy huquqini saylov orqali amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'zlari saylab qo'ygan vakillari, Prezident, vakillik organi bo'lmish oliy qonun chiqaruvchi organ-Oliy Majlis, xalq deputatlari tegishli Kengashlari orqali davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etadilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari Prezidentlikka saylash va saylanish huquqiga ega. Qonuning 2-moddasida "O'zbekiston Respublikasining 18 yoshga to'lgan fuqarolari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida qatnashish huquqiga ega".

Demokratik davlatlarda umume'tirof etilgan tamoyillar asosida shakllangan va amalda bo'lgan saylov o'tkazishning demokratik printsiplari mazmun-mohiyatini qo'yidagi tartibda sanash mumkin:

- 1) konstitutsiyaviy davlat tuzilishiga mos bo'lgan saylov tizimi va saylov huquqining zamonaviyligi tamoyili;
- 2) saylovni tashkil etish va uni o'tkazishda qonun ustuvorligiga erishish tamoyili;
- 3) saylovning halqchilligi tamoyili;
- 4) saylovning tejamkorligiga erishish tamoyili;
- 5) saylovda barqarorlik, haqqoniylik, yuksak ma'naviyat va inson huquqlarining hurmat qilinishi tamoyili;
- 6) saylovning uyushqoqligiga erishish tamoyili va boshqalar

Darhaqiqat, O'zbekistonda saylov huquqining asosiy printsiplari, avvalo Konstitutsiyada va unga muvofiq tarzda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi qonunda aniq belgilab qo'yilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- ihtiyoriylik
- yashirin ovoz berish huquqi

- to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) saylash huquqi

Ihtiyoriylik tamoyili, fuqarolarga o'z saylov huquqini hech bir qarshiliksiz amalga oshirish imkoniyatini ta'minlashga, ularning o'zini namoyon etish, yig'inlar va jamoat birlashmalarida qatnashish erkinligi kabi huquqlari butun saylov jarayoni davomida rioya etilishiga ishonchni ta'minlashga qaratilgan. Saylovlarda qatnashmaganlik uchun javobgarlik belgilanmaydi. Bu esa boshqa davlatlardan farq qiluvchi xususiyatlarimizdan biridir. Erkin saylov huquqining amalga oshirilishi fuqarolar ijtimoiy faolligining oshib borishiga xizmat qiladi. Bunday jamiyatda fuqarolar davlat tomonidan turli sohalarda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarga befarq bo'lmaydilar.¹

O'zbekistonda saylovlar yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. Saylovchilarning saylovlarda yashirin ovoz berishlari demokratiyani amalga oshirish shakllaridan biridir. Konstitutsiya va qonunlar ham fuqarolarning o'z hohish-irodasini erkin bildirishlari ustidan nazorat qilinishini man etadi.

Bevosita, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi tamoyili Konstitutsiya va saylov haqidagi qonunlarimizda aniq belgilab qo'yilgan. Mazkur printsipting asosiy va birdan – bir sharti har bir saylovchi shahsan ovoz berishdan iboratdir.

To'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi saylangan shahslarning saylovchilar bilan mustahkam aloqada bo'lishlari, davlat ahamiyatiga molik muhim masalalarni hal etishda muntazam ravishda o'zaro muloqot qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratadi.

Yuqoridagilardan tashqari, O'zbekiston saylov qonunchiligida halqaro normalarga mos ravishda saylov huquqining asosiy konstitutsiyaviy printsiplari bilan bir qatorda quyidagi umumiy printsiplari ham o'z ifodasini topgan:

- 1) oshkoralik;
- 2) adolatlilik
- 3) umumiylik
- 4) tenglik

¹ Axmedov D. Hoshimhonov A. O'zbekiston Respublikasida saylov huquqi va jarayoni. T. "O'zbekiston", 2007y. 10-11 betlar

Oshkoralik tamoyili saylovlar oshkoralik tamoyillariga asoslangan qonunlarga muvofiq o'tkazilishini ko'zda tutadi. Oshkoralik saylov jarayonida qonunga hilof harakatlarga chek qo'yadi.

Adolatlilik tamoyili. Saylov jarayoni barcha ishtirokchilari uchun teng sharoitlar hamda saylovchilarning barcha nomzodlar va ularning dasturlari hususidagi ahborotga ega bo'lishlarini ta'minlash lozim. Ma'lumki, hozirgi saylov qonunchiligimizga binoan siyosiy partiyalar va bevosita fuqarolar Prezidentlikka nomzodlar ko'rstaish huquqiga egadirlar. Qonunlarda Prezidentlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar ham hamma saylanuvchilar uchun teng asoslarda belgilangan.

Umumiy saylov huquqi printsiipi shundan iboratki, O'zbekistonning 18 yoshga to'lgan barcha fuqarolari saylash huquqiga egadirlar, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarda saqlanayotgan shahslar bundan mustasnodir.

Har bir saylovchi bir ovozga egadir. O'zbekiston Respublikasining 35 yoshdan kichik bo'lmagan fuqarolari O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylanish huquqiga egadirlar. O'zbekiston Respublikasining saylov kunigacha 21 yoshga to'lgan fuqarolari hokimiyatning mahalliy vakillik organlariga saylanish huquqiga egadirlar.

1994- yil 5- mayda O'zbekistonda "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilingan.

Saylovchilar o'z hohish-irodalarini erkin bildirish va yashirin ovoz berish huquqiga egadirlar.

Saylovchilarga uchastka saylov komissiyasining binosida saylovchilar ro'yhati bilan oldindan tanishib chiqish imkoniyati ta'minlanadi.

Biror bir sababga ko'ra saylovchilar ro'yhatiga vaqtida kirmay qolgan saylovchi uning shahsi, fuqaroligi va turar joyini tasdiqlovchi hujjatga asosan uchastka saylov komissiyasi tomonidan ro'yhatga kiritiladi.

Saylovchilar Prezidentlik lavozimiga ko'rsatilgan nomzodlarni yoqlab yoki ularga qarshi tashviqot yuritish huquqiga egadirlar.

Saylovchilar saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalar va nomzodlarning

kelgusi faoliyat dasturi bilan tanishish huquqiga egadirlar.

Yurtimizda bo'lib o'tgan parlament saylovlari shuni ko'rsatadiki, hozir bizda ana shunday qatlam shakllanmoqda. Ya'ni saylovchilar endilikda duch kelgan odamga emas, balki o'zi dastur va g'oyalarini yoqtirgan, kelajagi bor deb hisoblaydigan partiyaga ovoz bermoqda.¹

Saylanish huquqi nomzod bo'lmish shahsning saylovchilar tomonidan e'tirof etiladigan kerakli kasbiy va ahloqiy fazilatlari bilan bog'liq bo'lib, unga hokimiyat vakillik organlari va fuqarolar o'zini-o'zi boshqaruvida faoliyat olib borish imkoniyatini yaratadi.²

O'zbekiston Respublikasining saylov qonunchiligi, Prezident saylovi to'g'risidagi qonunchilik qisqa davrda muayyan taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi. Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy ma'naviy yuksalib borishi saylov qonunchiligining takomillashuviga asos bo'lib xizmat qildi.³

2009 yil 27 dekabrda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari saylovi va 2010 yil 10 yanvar kungi takroriy ovoz berish natijalariga ko'ra, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati-O'zbekiston Liberal demokratik partiyasidan 53 nafar, O'zbekiston Halq demokratik partiyasidan 32 nafar, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan 31 nafar, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan 19 nafar deputat saylandi. 15 nafar deputat O'zbekiston ekologik harakatining vakillaridir. 150 nafar saylangan deputatning orasida 33 nafari yoki 22 foizi hotin-qizlarni tashkil etadi.

Saylangan 150 nafar deputatdan 47 kishi yoki 31,3 foizi ilgari Qonunchilik palatasi deputatlari bo'lgan. Bu holat saylangan deputatlarning nafaqat o'z saylovchilarining ishonchiga sazovor bo'lganidan, qolaversa, parlament professional parlamentni shakllantirishda ularning hayotiy tajribasi va qonun ijodkorligi amaliy ko'nikmalaridan yanada samarali foydalanish imkoniyatini beradi. Saylangan deputatlar orasida 34 nafari yoki 22,7 foizi huquqshunoslar, 37 nafari yoki 24,7

¹ Karimov I.A. Parlament-jamiyat hayotining ko'zgusi// O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. Toshkent, "O'zbekiston", 2005y 163b

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi. YUridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik

³ Odilqoriev H, Azizov N O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi qonunchiligining rivojlanishi. T."Adolat", 2007y. 15 bet

foizi-iqtisodchilar. Umuman, quyi palata tarkibida jamiyatning deyarli barcha qatlam vakillari bor.¹

Saylov qonunchiligini yanada rivojlantirish ahamiyati haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi"da alohida to'htalib, saylovlar- bu mamlakatimizda amalda bo'lgan huquqiy normalarning nechog'liq demokratik ruhda ekanini namoyon etadigan, demokratik huquqiy davlatning uzviy belgisi, halqning o'z hohish-irodasini erkin ifoda etishining, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining asosiy shakli bo'lib, o'ta muhim va hal qiluvchi ahamiyatgaega masala ekanini alohida ta'kidladi.

Saylovda ishtirok etadigan siyosiy partiyalarning ro'yhatdan o'tishi uchun o'rnatilgan muddat 6 oydan 4 oyga tushirildi. Siyosiy partiyalarning saylovda ishtirok etishi uchun ruhsat berish masalalarini hal etish borasida zarur bo'ladigan saylovchilar imzosining miqdori avvalgi 50 ming imzo o'rniga 40 ming qilib belgilandi.

Saylov qonunchiligida siyosiy partiyaning "vakolatli vakili" degan yangi institut kiritildi, unga imzo varaqalarining to'g'ri to'ldirilishini tekshirishda, saylov uchastkalarida ovozlarni sanab chiqishda ishtirok etish huquqi berildi.

Yurtboshimiz Islom Karimov "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi"da O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish masalasiga alohida to'htalib, saylov qonunchiligimizda "saylovoldi tashviqoti" tushunchasiga aniq ta'rif berish, bunday tashviqotni olib borishning shartlari, turlari, ruhsat etilgan shakl hamda usullarini qonunchilik yo'li bilan belgilab qo'yish zarurligini ta'kidladi.

Saylov to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha kontseptsiyada ilgari surilgan tashabbuslardan yana biri-bu hizmat safari, o'qish yoki boshqa turli

¹ Nasriev I, Fahrutdnov SH. Rahmonov A. Demokratik saylov tizimi va uning huquqiy asoslari. T. "Ma'naviyat" 2011y 27 bet

sabalarga ko'ra, ovoz berish kuni o'z yashash joyida bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmagan saylovchilarning muddatidan oldin ovoz berish huquqini kafolatlash mehanizmini takomillashtirish bilan bog'liq. Yurtboshimizning tashabbusi bilan mazkur masalaning oliy qonunchilik organi tomonidan qonunchilikda aniq mustahkamlab, qo'yilishi fuqarolarning saylov huquqlari amalga oshirilishini, uchastka komissiyalari faoliyati oshkoraligini ta'minlash va saylov qonunchiligi buzilishi mumkin bo'lgan holatlarga yo'l qo'ymaslik masalalariga hizmat qilish shubhasidir.¹

Istiqlol yillarida jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy sohalari bosqichma-bosqich va izchil rivojlantirib borilganligi natijasida umume'tirof etilgan standartlar va yuksak demokratik talablarga har tomonlama javob beradigan saylov tizimi shakllandi.

Samarali demokratik saylov tizimining shakllantirilganligi saylovlarni ko'p partiyaviylik asosida, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, saylov qonunchiligi talablari hamda halqaro me'yorlarga amal qilgan holda, ochiqlik va oshkorolik sharoitida yashirin ovoz berish orqali umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylash huquqi printsiplariga to'la muvofiq tarzda o'tkazish imkoniyatini bermoqda.

Ushbu o'rinda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamitini rivojlantirish kontseptsiyasi isloh etish hamda demokratlashtirish jarayonining, davlat va jamiyat qurilishi sohasini, huquqiy tizimni, shu jumladan, saylov qonunchiligini yanada takomillashtirishning yangi bosqichini boshlab berganini alohida qayd etish kerak. Zero, Kontsepsiya asosida qabul qilingan "Saylov erkinligi yanada ta'minlanishi va saylov qonunchiligi yanada rivojlantirilishi munosabati bilan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi hamda "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni fuqarolarning saylov huquqlari erkinligini ta'minlash va

¹ Raxmonov A, Nasriev I, Mavlonov U. Jamiyatni demokratlashtirishning muhim yo'nalishi. T. "Ma'naviyat", 2011y 19-20 betlar

saylov qonunchiligini rivojlantirish borasidagi muhim qadam bo'ldi.

Mazkur Qonun bilan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi hamda "Xalq deputalari vilyaot, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga mamlakatimizda saylov erkinligi huquqi printsiplining to'liq joriy etilishi va saylov tizimining yanada demokratlashuviga hizmat qiladigan qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.¹

Qonunchilikka kiritilgan yana bir o'zgartirish va qo'shimcha saylovoldi tashviqotini olib borishning turlari, shakllari va usullarining aniq belgilab qo'yilishi bilan bog'liq.

Saylovoldi tashviqotining olib borishning shakllari sifatida omma oldida munozaralar, bahslar, matbuot konqerentsiyalari, intervyular, so'zga chiqishlar, saylovchilarning yig'ilishlari, deputatlikka nomzod, siyosiy partiya to'g'risidagi rolklarni joylashtirish nazarda tutildi.

Qonunchilikka kiritilgan yana bir qo'shimcha va o'zgartirish muddatidan oldin ovoz berishning muddatlari, tartibi va tartib-taomillarining belgilab qo'yilishidir.

Rivojlangan horijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bevosita saylov kunlaridan oldin jamoatchilik fikri so'rovlari, saylov natijalari tahminlarini, o'tkazilayotgan saylov bilan bog'liq boshqa tadqiqotlarni chop etishni taqiqlash bilan bog'liq amaliyot Frantsiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstriya, Daniya, Ispaniya, Meksika va boshqa davlatlarning qonunchiligida mustahkamlangan.

Mazkur normaning milliy saylov qonunchiligiga ham kiritilishi eng avvalo, saylovchilarning huquqlarini yanada yahshiroq himoya qilishga, u yoki bu nomzodga nisbatan noholis, yanglish, noto'g'ri munosabatni hamda saylovga oid qonun hujjatlarining buzilishi ehtimolini istisno etishga imkon beradi.²

2012- yil 19- dekabrda prezidentimiz Kontseptsiyaga muvofiq ishlab chiqilgan "Saylov erkinligi yanada ta'minlash va saylov qonunchiligini yanada rivojlantirilishi munosabati bilan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov

¹ Abdullaev J, Husanova M. Saylov huquqi erkinligining kafolati. Xalq so'zi. 2013 y. 23 yanvar

² Abdullaev J. Xusanova M. Saylov huquqi erkinligining kafolati. Xalq so'zi. 2013y. 23 yanvar

to'g'risida"gi hamda "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalarni kiritish haqida"gi qonun qabul qilindi.

Ushbu qonunning mazmun-mohiyati haqida O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi raisi Mirzoulug'bek Abdusalomov quyidagi fikrni bildirdi: - Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, saylovlar- bu mamlakatimizda amalda bo'lgan huquqiy normalarning nechog'lik demokratik ruhda ekanini namoyon etadigan, demokratik huquqiy davlatning uzviy belgisi, halqning o'z hohish irodasini erkin ifoda etishining, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining asosiy shakli bo'lib, o'ta muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega masaladir,-deydi M.Abdusalomov. Shu bois mamlakatimizda samarali, demokratik saylov tizimini rivojlantirishga qaratilgan chuqur o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Yangi qonunning o'ziga hos jihatlari, ahamiyati haqida- Qonunning asosiy maqsadi saylovning oshkoraligi va ochiq-oydinligi printsiplarini mustahkamlashga qaratilgan.

Yana bir e'tiborli jihat- endilikda kuzatuvchilarga O'zbekiston Ekologik harakatining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlarini saylash bo'yicha konferentsiyada ishtirok etish huquqi berildi. Ushbu huquqiy mehanizm parlament quyi palatasi deputatlari saylovining oshkoraligi va ochiq-oydinligini ta'minlaydi.

Aybdorlik masalasi sudda hal etilmagan yoki turli sabablar bilan ehtiyot chorasi sifatida qamoqda vaqtincha ushlab turilgan shahslar ham saylash huquqiga ega. Ularning ushbu huquqini ro'yobga chiqarish maqsadida qonunga qamoqda saqlash joylarida ham saylov uchastkalari tashkil etilishi to'g'risida norma kiritildi. Bu qo'shimcha mamlakatimizda inson huquqlari ustuvorligi printsipigga amal qilishning yana bir yorqin namunasidir.¹

Yangi qonunning qaysi jihatlari saylov jarayonida ochiq-oydinlik va holislikni ta'minlashga hizmat qiladi.

Ma'lumki, saylovning natijasida saylovoldi tashviqoti muhim o'rin tutadi.

¹ Abdusalomov M. Saylov jarayoni demokratlashuvning muhim kafolatlari. O'zbekiston ovozi. 2013 yil, 29 dekabr

Saylovoldi tashviqati to'laqonli o'tkazilsa, saylovchi o'z nuqtai nazarini belgilashga qiynalmaydi.

Qonunda mustahkamlab qo'yilganidek, saylovoldi tashviqoti- saylov kompaniyasi davrida amalga oshiriladigan va saylovchilarni deputatlikka nomzodni yoki siyosiy partiyani yoqlab ovoz berishga undashga qaratilgan faoliyatdir.

Tashviqotdan maqsad-nomzodga ovoz berishga da'vat etish. Bunda siyosiy partiyaning dasturi yoki saylovoldi platformasi, deputatlikka nomzod to'g'risidagi axborot tarqatiladi. Omma oldida munozaralar, bahslar, matbuot konferentsiyalari, intervyular, so'zga chiqishlar, saylovchilarning yig'lishlari o'tkaziladi. Saylov jarayonlarida siyosiy partiya, deputatlikka nomzod to'g'risidagi roliklardan foydalaniladi.

Saylovoldi tashviqotini ommaviy axborot vositalari orqali olib borish ham qonun bilan alohida tartibga solinadi. Bu borada davlat tomonidan deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalarga hajmiga ko'ra bir hil bo'lgan efir vaqti va nashr maydonini bepul berish yo'li bilan teng sharoitlar ta'minlanadi.

Saylovoldi tashviqoti saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish, bosma, ko'rgazmali, audiovizual va boshqa tashviqot materiallarini chiqarish hamda tarqatish orqali ham olib borilishi mumkin. Bu jarayonlarda ham saylov ishtirokchilariga teng sharoitlar yaratiladi.

Yangi qonunga ko'ra, saylov kuni va ovoz berish boshlanishiga bir kun qolganda saylovoldi tashviqotiga yo'l qo'yilmaydi. Binolarga, inshootlarga va boshqa joylarga ilgari joylashtirilgan saylovoldi tashviqoti materiallari saylovga bir kun qolganda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan olib qo'yiladi.

Taraqqiy etgan davlatlar qonunchiligida mavjud bunday normaning qonunchiligimizga kiritilishi saylovchilarga o'z qarashlarini, siyosiy hayrihohligini aniqlab olish, kim va qanday siyosiy dastur uchun ovoz berish masalasida aniq bir qarorga kelishi uchun qo'shimcha imkoniyat yaratadi. Shuningdek, bu ovoz berish kuni arafasida turli suiiste'mollik holatlari va qonun buzilishlarining oldini oladi.

Qaysi hollarda muddatidan oldin ovoz beriladi va bu jarayon qanday amalga oshiriladi? – Saylov kuni ayrim fuqarolar hizmat safari, ta'til yoki boshqa

yumushlar sababli o'z yashash joyida bo'lmasligi mumkin. Bunday holatlarda ularga muddatidan oldin ovoz berish uchun shart-sharoit yaratilishi saylov huquqi kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Qonun asosida muddatidan oldin ovoz berish o'tkazilishi vaqti va tartib-taomillari aniqlashtirilgani ana shu maqsadga hizmat qiladi. Endi muddatidan oldin ovoz berish saylovga o'n kun qolganda boshlanadi va saylovga bir kun qolganda tugallanadi. Uni o'tkazish vaqti okrug saylov komissiyasi tomonidan belgilanib, saylovchilar, kuzatuvchilar va ommaviy axborot vositalari vakillarining e'tiboriga etkazildi.

Buning uchun saylovchi o'z yashash joyida bo'la olmasligi sabablari ko'rsatilgan ariza asosida uchastka saylov komissiyasidan saylov varaqasini oladi.

Yangi qonun Markaziy saylov komissiyasi zimmasiga qanday vazifalar yuklaydi? Bu borada qanday ishlar amalga oshiriladi? Har bir qonun ijrosi undan aholining habardorlik darajasiga bog'liq. SHu bois Komissiyamiz siyosiy partiyalar, O'zbekiston Ekologiya harakati, adliya organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda joylarda ushbu qonunning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilik e'tiboriga etkazishga qaratilgan tadbirlar o'tkazishni maqsad qilgan.

Bir so'z bilan aytganda, saylov qonunchiligiga kiritilgan yangi normalar saylov kampaniyasi mobaynida siyosiy partiyalarga va deputatlikka nomzodlarga teng shart-sharoitlar yaratish mehanizmlarini rivojlantirish bilan bir qatorda fuqarolarga o'z saylov huquqlarini erkin amalga oshirishlari uchun huquqiy kafolatlar ta'minlanishi yanada mustahkamlandi. Saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish jarayonida oshkoralik va ochiqlik printsiplarining yanada mustahkamlangani mamlakatimizda saylov huquqi erkinligi printsiplining to'liq joriy etilishi va saylov jarayonining yanada demokratlashuviga hizmat qiladi.¹

Darhaqiqat, saylovlar - kuchli fuqarolik jamiyatiga ega bo'lgan huquqiy demokratik davlatning ajralmas belgisi, halq-hohish-irodasining erkin ifodalanishi, fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etishining asosiy shaklidir.

¹ Abdusalomov M. Saylov jarayoni demokratlashuvining muhim kafolatlari. O'zbekiston ovozi. 2013 y 29 dekabr

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda milliy saylov tizimi shakllantirilib, bu borada mustahkam qonunchilik bazasi yaratilganini alohida e'tirof etish lozim. Eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida saylov tizimiga alohida bob ajratilib, fuqarolarning saylov huquqlari to'la mustahkamlab qo'yildi.

Saylov qonunchiligini tubdan demokratik isloh qilishning huquqiy poydevori bo'lgan Konstitutsiyaga asosan saylovga oid qonunchilik izchil shakllantirildi va bugungi kun talablariga hamohang ravishda rivojlantirilib borilmoqda. 1993- yil 28-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

1994- yil 5- mayda qabul qilingan "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda esa, fuqarolarning saylov huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita cheklashga, saylovchilarning o'z hohish-irdosini bildirishlarini nazorat qilishga yo'l qo'ymasligi, saylovchilarga o'z ijtimoiy faolliklarini mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqi, shahsning saylov huquqlari, sud yo'li bilan himoya etilishi, saylov komissiyalarining, davlat organlari, mansabdor shahslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy hatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatini kafolatlaydi.

Muhtaram yurtboshimiz davlatimizning uzoq va yaqin istiqboldagi taraqqiyot strategiyasini belgilab berar ekan, mazkur Kontseptsiyada mamlakatimizda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini takomillashtirish masalasini demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etgani bejiz emas.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish "kontseptsiyasining" O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirishga bag'ishlangan to'rtinchi yo'nalishi fuqarolarning erkin saylov va o'z hohish irodasini erkin bildirish printsiplarini ta'minlash.

Hulosa qilib aytganda, Konstitutsiyada belgilangan "O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi va saylov qonunchiligimizda halqimizning bugungi hayoti va

an'analarining o'ziga hos xususiyatlari mujassam bo'lib, ular ko'ppartiyaviylikni yanada rivojlantirishda, siyosiy partiyalar o'rtasidagi raqobatni, g'oyalar va dasturlar kurashini faollashtirishga, barcha fuqarolar va siyosiy partiyalarga davlat hamda jamiyatni boshqarishda faol ishtirok etish mehanizmlarini takomillashtiradi, saylov tizimining yanada demokratlashuviga hizmat qiladi.¹

2012- yil 19- dekabrda qabul qilingan O'RQ-340 son, 2012- yil 20- dekabrda kuchga kirgan "Saylov erkinligi yanada ta'minlanishi va saylov qonunchiligi yanada rivojlantirilishi munosabati bilan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi hamda "Xalq deputtalari viloyat va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni kontseptsiyada bildirilgan fikrlar va takliflarni o'zida ifoda etdi.

Shu bilan parlament islohotlari tugagani yo'q, uni takomillashtirish davom etmoqda. Joriy yilning 5 sentabrida "Xalq so'zi" gazetasida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni e'lon qilindi. Unga asosan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi "VI bob Saylov va referendumni tashkil etish hamda o'tkazish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik" bilan to'ldiriladi.

Mazkur o'zgarishlar amaldagi qonunchilikda mavjud bo'shliq hisoblangan "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov komissiyalarining, referendum o'tkazuvchi komissiyalarning faolliyatiga aralashish", "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov komissiyalarining referendum o'tkazuvchi komissiyalarning qarorlarini ijro etmaslik", "Nomzodning, ishonchli vakilning, kuzatuvchining yoki siyosiy partiya vakolati vakilining huquqlarini buzish", "Saylovoldi tashviqotini, referendumga qo'yilgan masalalar yuzasidan tashviqot olib borish shartlari va tartibini buzish", "Nomzodlar, siyosiy partiyalar to'g'risida yolg'on ma'lumotlarni tarqatish",

¹ Капъязов К.Зулфикоров Ш., Тург'унов О. О'zbekiston Respublikasi saylov tizimi va saylov qonunchiligi. Toshkent, "O'zbekiston", 2014 y. 34-36 betlar

“Saylovga yoki referendumga tayyorgarlik ko`rish va saylov yoki referendum o`tkazish jarayonida axborot hamda tashviqot materiallarini qasddan yo`q qilib yuborish yoki ularga qasddan shikast etkazish”, “Saylovni yoki referendumni moliyalashtirish tartibini buzish” hamda “Jamoatchilik fikri so`rovlari natijalarini, saylov yoki referendum natijalari tahminlarini chop etish tartibini buzish” bilan bog`liq masalalar bo`yicha ma`muriy javobgarlik choralari belgilandi.¹

Umuman olganda O`zbekistonda saylov qonunchiligi har bir bosqichda tizimli asosda amalga oshirilmoqda va muayyan siyosiy o`zgarishlar bilan davom ettirilmoqda. Bu doimiy ravishda saylovchilarning siyosiy va huquqiy ongi, ruhiyati mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga hamohang ravishda o`zgarishiga olib kelmoqda.

¹ Imanov N. IOldashev J.Saylov qonunchiligini liberallashtirish. Muxofaza.2014 y.10 son, 3 bet

1.2. Ommaviy axborot vositalarining Siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslarini maqsadida ko'plab qonunlar va huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Ma'lumki, Konstitutsiya qonunchilik tizimining eng muhim va asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida OAV faoliyati va kafolatlarining asosiy tamoyillarini belgilab beruvchi normalar o'z aksini topgan. Hususan, Konstitutsiyaning 12-moddasida konstitutsiyaviy tuzumning asosi sifatida "Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas", deb belgilangan.

Ko'rsatilgan umumiy tamoyillar bilan birga, mazkur hujjat OAVning huquqiy maqomini belgilovchi boshqa mahsus konstitutsiyaviy normalarni ham o'z ichiga oladi. Hususan, Konstitutsiyaning 29 moddasida "Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega" ekanligi kafolatlangan. Aynan OAV maqomining konstitutsiyaviy huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan normasi Konstitutsiyamizning 67-moddasida o'z ifodasini topgan bo'lib, unda "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Tsenzuraga yo'l qo'yilmaydi"- deb belgilab qo'yildi.¹

Ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida zamonaviy talab va standartlar hamda yuqorida ko'rsatib o'tilgan konstitutsiyaviy tamoyillar asosida O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi, "Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi, "Reklama to'g'risida"gi, "Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi, "Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun hujjatlari qabul qilindi.

Shu jihatdan olganda yuqoridagi qonunlar bilan bir qatorda ularning ijrosini ta'minlashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, tegishli idoralarning

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. O'zbekiston. 2014 y. 5-13 betlar

normativ hujjatlari qabul qilingan. Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida bugungi kunda soʻz erkinligi, OAV tomonidan ishlab chiqarilgan axborot va boshqa mahsulotlarning moneliksiz tarqatilishi, axborotni qidirish, olish va ishlab chiqarish, ularga egalik qilish, tasarruf etish, OAV mahsulotini yaratish va tarqatishda ishlatiladigan materiallar va homashyolar, texnik vositalar va asbob-uskunalarni ishlab chiqarish, sotib olish, saqlash hamda ekspluatatsiya qilish va boshqa masalalar bozor iqtisodiyoti talablari hamda demokratik andazalarga mos ravishda tartibga solinmoqda.

Maʼlumki, OAV faoliyati “Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi”, “Fuqaroviy va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro paktga fakultativ protokol ” va boshqa talay xalqaro huquqiy hujjatlarda oʻz aksini topgan.

Aytish mumkinki, ommaviy axborot vositalari erkin va demokratik faoliyatiga oid dastlabki huquqiy meʼyorlar respublikamiz mustaqilligi eʼlon qilinishidan avval yaratilgan edi. Jumladan, 1991- yil 14- iyunda qabul qilingan “Ommaviy axborot vositalari toʻgʻrisida”gi qonun ommaviy axborot vositalari mustaqilligini taʼminlash yoʻlida poydevor vazifasini oʻtadi, desak yanglishmaymiz. Mazkur qonuning qabul qilinishi, oʻsha davr nuqtai nazaridan yondashganda, ommaviy axborot vositalari faoliyati uchun nihoyatda muhim siyosiy ahamiyat kasb etgani shubhasizdir. Mustaqillik eʼlon qilinishi arafasida bunday qonunning qabul qilinishi, jamiyat taraqqiyotida, yurtimiz mustaqilligini mustahkamlashda matbuot vositalari zimmasidagi masʼuliyat yuki naqadar salmoqli ekanini koʻrsatadi. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori bilan “Ommaviy axborot vositalari toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonuni 1997- yil 26- dekabrda amalga kiritilgach, 1991- yil 14- iyundagi qabul qilingan qonun oʻz kuchini yoʻqotgan deb topildi.¹

Demokratik matbuot huquqiy asoslarining yaratilishida Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining alohida oʻrni bor. Asosiy qonunimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatiga doir alohida bob ajratilgan.

¹ Abduazizova N. Ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada liberallashtirish. Jamiyat va boshqaruv. 2005y. 2 son. 66 bet

1996-2002 yillar maboynida qabul qilingan, bevosita ommaviy axborot vositalari faoliyatiga doir qonunlar matbuot hodimlari, noshir va jurnalistlar faoliyatining barcha yo`nalishlarini qamrab olgan.

Prezident Islom Karimov “O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida matbuot vositalari faoliyatini yanada erkinlashtirish masalalari hususida to`htalib, bunday deb yozadi: “Ommaviy axborot vositalarining faoliyatini va ularning samarali ishlashiga yordam beradigan mehanizmlarni tartibga soluvchi qonunchilik bazasini takomillashtirish muammosi ham dolzarb bo`lib bormoqda. Ayni choqda ommaviy axborot vositalarining manfaatlarini va ularning vakillarini qonun yordamida himoya qilish, ularning ahborot olish manbalaridan foydalanish huquqini ta`minlash ham muhim ahamiyatga ega”.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma yig`ilishida so`zlagan ma`ruzasida ham ommaviy axborot vositalari huquqiy bazasini takomillashtirish masalasiga jiddiy e`tibor qaratildi.

Albatta, qonun ijrosini ta`minlash, uning jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanishi borasida ayrim muammolar ham ko`zga tashlanayotgani sir emas. Ularni izchil va qat`iy sa`y-harakat, maqsad sari og`ishmay borish orqaligina bartaraf etish mumkin. Bu borada jamiyat hayotining barcha sohalarida, matbuot tizimi sohasida qonun ustuvorligiga erishish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz ta`kidlaganidek, “Qonunning ustuvorligi- huquqiy davlatning asosiy printsipidir. U hayotning barcha sohalarida qonunning qat`iyan hukmronligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hech bir qonunga bo`ysunish majburiyatidan halos bo`lishi mumkin emas. Qonun oldida hamma barobardir”.¹

Huquqiy-demokratik jamiyatda jurnalist, barcha fuqarolar singari, qonun oldida javobgar bo`lishi bilan birga, uning huquqiy muhofazasi qonunlar bilan beglilangan va jurnalistlar o`z faoliyatida mavjud qonunlarga suyanadi.

Ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirishning ijtimoiy-siyosiy asoslari deganda, avvalo, matbuotning erkin faoliyat yuritishi uchun yaratilgan shart-

¹ Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon xayot-pirovard maqsadimiz. T. “O`zbekiston” 2000 y 29 bet

sharoitlar tushuniladi. Shu bilan bir qatorda, OAVning ijtimoiy-siyosiy asoslari bizda sobiq tuzum negizida shakllangani tarihiy haqiqatdir.

Masalaning ana shu jihatiga to'htalib, Prezident Islom Karimov bunday deb yozadi: "Shuni tan olish kerakki, biz mustabid tuzum merosi va aqidalaridan, uning mafkurası, ma'muriy nazorati va tsenzurasidan juda katta qiyinchilik bilan halos bo'lyapmiz.

Haligacha jurnalistlar faoliyatida o'z-o'zini tsenzura qilish, yuqoridan buyruq kutish kayfiyatlari sezilib turibdi".¹

Ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirish jarayonini yangi bosqichga ko'tarishda ko'pgina nashrlarning iqtisodiy nochorligi jiddiy to'sqinlik qilayotgani ham ma'lum. Bu hol matbuotning avvalo iqtisodiy asoslarini mustahkamlash, huquqiy kafolatlarni kuchaytirish, mustaqil nashrlar faoliyati uchun zarur shart-sharoit yaratilishini taqozo etmoqda. Bu masalaga Prezident Islom Karimov ma'ruzasida ham alohida e'tibor qaratildi: "Ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy erkinligini ta'minlash kerak. Bu ularning mustaqil faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun asosiy omil bo'lishi lozim.

Biz matbuot va axborot erkinligining kafolatini bozor munosabatlari, ahborot maydonida sog'lom raqobat tamoyillarining rivojlanishida ko'ramiz".²

O'zbekiston ommaviy axborot vositalari faoliyatini erkinlashtirish bo'yicha huquqiy asoslarning yanada takomillashtirish, ayniqsa, matbuotning iqtisodiy erkinligini mustahkamlash uchun, asosiy e'tibor quyidagi masalalarning echimiga qaratilmog'i lozim:

-so'z va matbuot erkinligi himoyasi, ommaviy axborot vositalariga oid qonunchilik me'yorlari yangi qarashlar asosida talqin etilishi, aniqrog'i, ularga mukammal huquqiy sharhlar berilishi.

-jurnalistlarning huquqiy bilimlarini oshirish, huquqiy himoya markazlarini tashkil etish, ommaviy axborot vositalari hodimlarining ahloq kodeksini ishlab chiqish zarur. Bu matbuotning chinakam "to'rtinchi hokimiyat" darajasiga

¹ Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. T. "O'zbekiston", 2002y. 29 bet

² Karimov I.A. Ozod va obod vatan erkin va farovon xayot-pirovard maqsadimiz. T. "O'zbekiston" 2000y. 44 bet

ko'tarilishiga hizmat qilgan bo'lur edi.

Ommaviy axborot vositalari erkinligi va ta'sirchanligining ortishi, ularning nafaqat davlat muassasalari, balki nodavlat, jamoat tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish imkoniyatining muttasil kuchayishi fuqarolik jamiyatining rivojlanish qonuniyatlaridan biridir.

Chunki fuqarolik jamiyatida matbuotning ijtimoiy institut sifatidagi erkinligi mamlakat Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadi.¹

Prezident I.A.Karimovning "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasida" ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga e'tibor qaratildi.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Mamlakatimizda o'tgan yillar davomida, ohirgi 10 yilda ommaviy axborot vositalarini yanada liberallashtirish, so'z erkinligini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Yurtimizda, ommaviy axborot vositalari rivojini ta'minlaydigan, demokratik talab va standartlarga to'la mos keladigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Ushbu davrda ommaviy axborot vositalarini erkin va jadal rivojlantirishga, ahborot sohasining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan 10 ga yaqin qonun hujjatlari qabul qilindi.

"Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi har kimning axborotni erkin va moneliqsiz olish hamda foydalanish huquqlarini amalga oshirishda, axborotning muhofaza qilinishi, shahs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi havfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

So'nggi yillarda yangi tahrirdagi "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonunga, shuningdek, "Telekommunikatsiyalar to'g'risida", "Reklama to'g'risida", "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi va boshqa bir qator qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Yuridik va jismoniy shahslarning, axborot texnologiyalari va tizimlarini

¹ Mustaqil O'zbekiston tarixi. T.2000y 3 qism. 215 bet

qo'llagan holda, ahborot resurslaridan foydalanish mehanizmlarini belgilab bergan yangi tahrirdagi "Ahborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi ommaviy axborot vositalarini modernizatsiya qilishni jadal rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.¹

2011- yil 30- dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha soliq imtiyozlari va afzalliklar berish to'g'risida"gi qarorida ommaviy axborot vositalari, nashriyot, poligrafiya korhonalari va matbuot tarqatuvchi tashkilotlarni yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar va omillarni yaratish, buning asnosida ommaviy axborot vositalarining mustaqilligini ta'minlash, axborot sohasini rivojlantirishda, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamiyat nazoratini o'rnatishda ularning rolini oshirishga katta e'tibor berilgan.²

1991- yilda O'zbekistonda 393 ta bosma OAV faoliyat yuritgan va ularning barchasi davlatga qarashli bo'lgan bo'lsa, hozirda 1290 ga yaqin bosma OAVning qariyb 60 foizi nodavlat OAV hisoblanadi.³

Boshqa ommaviy ahborot vositalarining ommaboplik darajasi anchagina past. Hususan, so'ralganlarning 35, 6 foizi davlat radiostantsiyalarini, 30,6 foizi respubik matbuotini, 13,3 foizi Rossiya ommaviy axborot vositalarini, 8,7 foizi nodavlat radiostantsiyalarni 6,6 foizi nodavlat televideniyanini, 5,9 foizi mustaqil matbuotni, 1,5 foizi "Bi-Bi-Si", "Ozodlik" kabi horijiy radio stantsiyalarni o'zlari uchun muhim va asosiy axborot manbai, deb hisoblaydi.

So'rovda eng ommabop axborot-yangilik tarqatuvchi teleko'rsatuvlar "Davr" va "Ahborot" ko'rsatuvlari ekani aniqlandi. "Davr" ko'rsatuvlarini 41,9 foiz, "Ahborot" ko'rsatuvlarini esa 37,4 foiz so'ralganlar muntazam ko'rib borar ekan.

So'ralganlarning har beshtasidan bittasi ya'ni 20,7 foizi muntazam ravishda, yarmiga yaqini ora-sira radio tinglashini, har uchtdan bittasi esa radio tinglamasligini bildirgan. So'ralganlar fikricha, "Vodiy sadosi" radiostantsiyasi eng

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik isloxoatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konseptsiyasi. T. "O'zbekiston", 28 bet

² Karimov I.A. Ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha soliq imtiyozlari va afzalliklar berish to'g'risidagi qaror. Xalq so'zi. 2011 yil 31 dekabr

³ Jonuzoqov A. Ommaviy axborot vositalari jamiyat ko'zgusi. Milliy tiklanish. 2012 yil 8 fevral

ommabop va uni respondentlardan 32,1 foizi muntazam, 30,9 foizi ora-sira tinglaydi. Ikkinchi o'rinda "Yoshlar" radiostantsiyasi-tegishlich 26,7 va 29,6 foiz. Keyingi o'rinlarda ommaboplik reytingi bo'yicha "Mash'al", O'zbekiston radiosining birinchi kanali, "Oriyat dono", "O'zbekim taronasi" radio stantsiyasi turadi. So'rovda aniqlanishicha, respondentlarning faqat 15,9 foizi gazeta va haftanomalarni muntazam ravishda, 51,9 foizi ora-sira o'qiydi. So'ralganlarning har uchinchisi davriy nashrlarni umuman o'qimaydi. "Ijtimoiy fikr" markazi mutahassislari tomonidan ushbu faktga jiddiy e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlanganki, bu fikrga qo'shilmasdan ilojimiz yo'q.

Mamlakatimiz aholisi o'rtasida "Xalq so'zi", "Narodnoe slovo", "Pravda Vostoka", "Ma'rifat" kabi ijtimoiy-siyosiy gazetalar, shuningdek, viloyat, shahar va tuman gazetolari, bundan tashqari hordiq uchun mo'ljallangan "Darakchi", "Humo" gazetolari nisbatan ommabop davriy nashrlar ekanligini ham ushbu so'rov natijalari ko'rsatdi.

Shunday qilib, so'rov natijalaridan ayon bo'lyaptiki, O'zbekiston aholisining ko'pchilik qismi o'zlarining saylov huquqlarini etarli darajada bilmaydi. Bu esa, o'z navbatida fuqarolarimizga saylovlar, saylov huquqi va fuqarolar erkinligiga oid qonunchilikni tanishtirish va tushuntirishga qaratilgan barcha turdagi targ'ibot-ma'rifat ishlarini kuchaytirishni taqozo etadi.

So'rov mamlakat aholisining siyosiy partiyalar faoliyatidan habardorlik darajasi 2003 yil noyabrida o'tkazilgan so'rov natijalariga nisbatan sezilarli miqyosda o'sganligini ko'rsatdi va bu o'tgan davrda siyosiy partiyalar hamda ommaviy ahborot vositalari tomonidan ahborot-targ'ibot ishlari kuchaytirilganligi natijasidir. Shu bilan birga, 1999, 2002, 2003 va 2004- yillarda o'tkazilgan so'rovlarning qaysi tahlili yaqqol ko'rsatmoqda-ki, o'tgan davrda ko'pgina partiyalar o'z saylovchlarining muayyan qismida mahrum bo'lgan. So'ralganlarning fikriyaa, mavjud siyosiy partiyalar yuzaga kelgan bunday tashvishli holatni bartaraf etish, saylovchilarga o'z dasturiy maqsad va vazifalarini imkon qadar keng tushuntirib berish borasida sustkashlik qilmoqda.

Umuman olganda, Oliy Majlisga saylovlar arafasida aholi o'rtasida

o'tkazilgan ushbu ijtimoiy so'rov mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar samaradorligini yana bir bor qat'iy tasdiqladi va yurtimiz fuqarolari kayfiyaida zohir bo'layotgan barqaror ijobiy o'zgarishlar buning yaqqol dalolatidir.

Saylov huquqi va ommaviy axborot vositalari erkinligi, so'z erkinligi-nafaqat huquq, ayni chog'da shu huquq sohiblariga muayyan majburiyatlar yuklaydigan mas'uliyat ham, demakdir.

Keng qamrovli hayotbahsh o'zgarishlar axborot sohasini jadal rivojlantirish, ommaviy axborot vositalari faoliyatini erkinlashtirish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayonining muhim tarikbiy qismiga aylanishi zarurligini taqozo etayotgan hozirgi yangilanishlar davri, o'z navbatida, mamlakat ommaviy axborot vositalari zimmasiga ham muayyan vazifalarni yuklaydi.

Birgina muammo-ommaviy axborot vositalarida tanqidiy materiallar berilishi masalasini olib ko'raylik. Avvalo, "tanqid" tushunchasining o'zi ham jurnalistlar tomonidan tamomila yangi mazmunda, eskicha qarashlardan farqli o'laroq, keng huquqiy ko'lamlarda talqin etila boshlanganini kuzatish mumkin.

Matbuot sahifalarida, radio to'lqinlari va televideniya ekanlarida, jurnalistlarning turli uchrashuv va muloqotlarida tez-tez o'rta tashlanayotgan bunday amaliy mulohazalardan xulosa shuki, jamiyatning bugungi hayoti matbuot va ommaviy axborot vositalarida o'zining qanchalik holisona aksini topsa, jamiyatimizda shunchalik adolatli va to'g'riso'zlik muhiti hukmron bo'ladi.

Qolaversa, ezgu maqsad- adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidagi sa'y-harakatlar o'zining tezkor samaralarini bera boshlaydi. Chunki "Yutuqni-yutuq, kamchilikni-kamchilik, jinoyatni-jinoyat, hiyonatni-hiyonat, deb, hamma narsani o'z nomi bilan atash-tom ma'nodagi demokratik jamiyat matbuotining haqiqiy qiyofasini belgilab beradi".¹

Saylov jarayonlarida ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar faoliyat ko'rsatadigan keng, ayni chog'da tezkorlik, aniqlik, halollik, holislik, jasorat va mas'uliyat talab etadigan maydon-axborot makonida kasbiy huquqlar suiiste'mol

¹ Karimov I.A. Havfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10.-T: O'zbekiston, 2002, 393-396 betlar

etilgan, ijtimoiy ahamiyatga molik muhim axborot yashirilgan yoki sohtalashtirilgan, turli mish-mishu bo'htonlar ishonchli axborot sifatida taqdim etilgan materiallar hamda habarlar uchrab turishi sir emas.

Konstitutsiyaning 19-moddasida fuqaro va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqligi, shuningdek, fuqarolarning Konstitutsiya hamda qonunlarda mustahkamlangan huquq-erkinliklari dahlsizligi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Kontseptsiyada ta'kidlaganidek, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi, "Halq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi qonunlarga "ovoz berish kuniga qadar qolgan besh kun ichida, shuningdek, ovoz berish kuni jamoat fikri so'rovlari natijalarini, saylov natijalari, prognozlarini va o'tkazilayotgan saylov bilan bog'liq boshqa tadqiqotlarni nashr etish (e'lon qilish), shuningdek, ularni umumiy foydalanishdagi ahborot-telekommunikatsiya tarmoqlariga (shu jumladan, Internet tarmog'iga) joylashtirish taqiqlanadi" degan normani kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu normaning yuqorida ko'rsatilgan qonunlarga kiritilishi saylovchilar huquqlarining yanada ta'sirchan himoya qilinishi, muayyan nomzodga g'arazli munosabatda bo'lish, bu borada saylov qonunchiligi buzilishiningoldini olish imkonini beradi.¹

Hozirgi kunda O'zbekistonda 1292 ta ommaviy axborot vositalari qonun doirasida o'zining yo'nalishidan kelib chiqib saylovlarni keng yoritadi. Shundan 775 tasi nodavlat OAV hisoblanadi.

Bugungi kunda "Internet jurnalistika" yohud "Internet gazeta" kabi tushunchalar paydo bo'ldi.

Hozirda respublikada amaldagi qonunga muvofiq 196 ta hususiy veb-sayt ommaviy ahborot vositasi sifatida ro'yhatga olingan.

Etti tilda bosma ommaviy axborot vositalari nashr etilmoqda. Televidenie va radiolarda ham bu amaliyot qo'llanilib kelinmoqda. Eshittirish va ko'rsatuvlar

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. Xalq so'zi. 2010y. 13 yanvar

qardosh halqlar tillaridan tashqari rus, ingliz tillarida ham efirga uzatilmoqda.

Ommaviy axborot vositalari saylov jarayonlarida o'ziga hos o'rin tutadi. Binobarin, saylov jarayonida ommaviy axborot vositalari halqning minbari sifatida turli hil siyosiy huquqiy qarashlarga ega bo'lgan siyosiy tuzulmalarning bahs-munozarali kechadigan maydon sifatida ushbu muhim tadbirlarning faol ishtirokchisi sifatida qatnashadilar. O'z navbatida fuqarolar ommaviy axborot vositalari orqali saylov jarayoniga oid barcha ahborotlarni aynan axborot vositalari orqali olishlari ushbu institutning o'rni va ahamiyatini yanada oshiradi.

Saylov, nomzodlar to'g'risidagi axborotni izlash, yig'ish va tarqatish erkinligini, saylov jarayonlarining ommaviy axborot vositalarida holisona yoritilishini ta'minlaydi. Ommaviy ahborot vositalari qonunga muvofiq aholini saylov, nomzodlar ko'rsatish, ularning saylovoldi dasturlari, saylov kampaniyasining borishi, ovoz berish yakunlari va saylov natijalaridan habardor etib borish, o'z faoliyatini qonun, qonun hujjatlari va davlatning halqaro majburiyatlari doirasida amalga oshirish uchun mas'ul hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalari tipologiyasiga ko'ra, ommaviy axborot vositalarining 5 ta asosiy turini ajratib ko'rsatish mumkin. Bular matbuot (gazetalar, jurnallar va boshqa nashrlar), televideniya, radio, axborot agentliklari, shuningdek, Internet saytlaridir.

O'zbekiston Respublikasining ommaviy axborot vositalari saylovga tayyorgarlikning borishi va saylov qanday o'tayotganligini yoritib bordilar.

Saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga doir barcha tadbirlarda, shuningdek saylov kuni ovoz berish honalarida va ovozlarni sanab chiqishda deputatlikka nomzodlar ko'rsatgan siyosiy partiyalardan bittadan kuzatuvchi, ommaviy axborot vositalarining vakillari, boshqa davlatlar, halqaro tashkilotlar va harakatlardan kuzatuvchilar qatnashish huquqiga egadirlar. Ularning vakolatlari tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Manfaatdor tashkilotlar o'z kuzatuvchilari to'g'risida Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazuvchi okrug saylov komissiyalariga saylovga kamida o'n besh kun qolganida ma'lum qildilar.

Saylov kampaniyasi boshlanganligi avvalgi chaqiriq Qonunchilik palatasi deputatlarining vakolat muddati tugashidan kamida uch oy oldin Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ommaviy axborot vositalarida e'lon qilindi.

Deputatlikka nomzodlarga, siyosiy partiyalarga ommaviy ahborot vositalaridan foydalanishda teng huquq berildi. Ommaviy ahborot vositalaridan foydalanish tartibi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan siyosiy partiyalar bilan kelishilgan holda belgilandi.

Markaziy saylov komissiyasi jurnalistlarning akkreditatsiyasini o'tkazib bordi. Bu haqdagi arizalar turli mintaqaviy, nodavlat, elektron tarmoq va boshqa ommaviy axborot vositalari vakillaridan kelib tushdi. Bunda shuni kuzatish mumkinki, bosma va elektron matbuotlarning hilma-hilligi ortib bormoqda va bu saylov kampaniyalarining o'ziga hos xususiyatiga aylanib bormoqda. O'z navbatida, hujjatlarni topshirgan hamma jurnalistlarga alohida beyjiklar tayyorlanib, bu ularning o'ziga hos kirish hujjatiga aylandi. Bu esa saylov jarayonini yanada tartibli qilib, jahon andozalariga yaqinlashtirdi.

Bo'lib o'tgan saylov kampaniyalarining takomillashuvi avvalgilardan nafaqat son jihatidan, balki sifat jihatidan ham farqlanib bormoqda. Bunda, Markaziy saylov komissiyasi va uning matbuot markazlarining butun ish faoliyati saylov jarayonlariga oid barcha ma'lumotlarning oshkoraligi va ochiqligini ta'minlashga qaratildi. Matbuot markazlari muntazam ravishda ishchi uchrashuvlar, seminar-treniglar, anjumanlar tashkil etib ularga jurnalistlarda qiziqish uyg'otishi mumkin bo'lgan barcha doiradagi mutahassis va mansabdor shahslarni taklif qildilar.

Saylov jarayonini ahborot bilan ta'minlanishining yana bir yangi muhim tashkiliy kafolatlaridan biri bo'lib 2004 yilda Internetda www.elections.uz manzili bo'yicha Markaziy saylov komissiyasining rasmiy veb-sayti ishga tushirildi. Unda saylov jarayonlariga oid barcha tegishli axborot, jumladan, so'nggi yangiliklar, qonun va me'yoriy hujjatlar, Markaziy saylov komissiyasi faoliyati haqida va boshqa ma'lumotlar joylashtirildi.

O'zbekiston televideniyasi va radiosida saylov qonunchiligiga oid ma'rifiy roliklarni efirga berish, Markaziy saylov komissiyasining siyosiy partiyalar

vakillari, huquqshunos mutahassislar ishtirokida jonli ko'rsatuvlar tayyorlash, saylov jarayonini ahborot ta'minotining muhim kanallaridan biri sifatida hizmat qildi.

II. Bob Saylov jarayonlarini yoritishda ommaviy ahborot vositalarining roli.

2.1 Ommaviy axborot vositalarida saylov kampaniyasini yoritishning huquqiy asoslari

Hozirgi paytda dunyo miqyosida kishilarning saylov huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, erkin ,demokratik , adolatli saylovlarni tashkil etish va o'tkazish, shuningdek, ularni ommaviy ahborot vositalarida yoritish bilan bog'liq 30 dan ziyod halqaro normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. Masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi halqaro pakt, Yevropada Havfsizlik va Hamkorlik tashkiloti, Insoniylik mezonlari bo'yicha Kopengagen Kengashi hujjati, Inson huquqlari bo'yicha Vena deklaratsiyasi va Harakat dasturi kabi halqaro hujjatlarda fuqarolarning so'z erkinligi va saylov huquqlaridan foydalanishi bilan bog'liq alohida normalar qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi saylov tizimi umum e'tirof etilgan halqaro huquqiy hujjatlarda belgilangan tamoyil va qoidalar asosida shakllantirilgan bo'lib, milliy saylov qonunchiligimiz ham halqaro saylov standartlari talablariga to'la mos keladi. Bunday me'yor va mezonlar esa mamlakatimiz saylov tizimini belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjatlar majmui- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi, "Halq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengshalariga saylov to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi qonunlar hamda qonunosti hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan.

"Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga asosan butun saylov kampaniyasi keng oshkoralik asosida tuzilgan. Har bir saylovchi saylov davomida saylov okruglari va uchastkalarini tuzishga, saylov komissiyalarining tarkibi, komissiyalar joylashgan manzil va ish vaqtiga, deputatlikka nomzodlarni ro'yhatga olish, ovoz berish va saylov yakunlariga doir ahborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega.

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi va “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining 6-moddasi saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishdagi oshkoralikka bag‘ishlangan bo‘lib, unga binoan ommaviy axborot vositalari saylovga tayyorgarlikning borishi va saylov qanday o‘tayotganligini yoritib boradilar. Saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishga doir barcha tadbirlarda, saylov kuni ovoz berish honalarida va ovozlarni sanab chiqishda deputatlikka nomzodlar ko‘rsatgan siyosiy partiyalardan bittadan kuzatuvchi, ommaviy axborot vositalarining vakillari, boshqa davlatlar, halqaro tashkilotlar va harakatlardan kuzatuvchilar qatnashish huquqiga egadirlar.¹

O‘zbekiston Respublikasida saylovlarni tashkil qilish hududiy printsipga asoslanadi, shuning uchun saylovlar saylov okruglari orqali amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasida saylovni tashkiliy ravishda o‘tkazish uchun quyidagi saylov komissiyalari tashkil etildi:

1. Markaziy saylov komissiyasi
2. Okrug saylov komissiyasi
3. Uchastka saylov komissiyasi

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylovlarni, O‘zbekiston Respublikasi referendumini tashkil etish va o‘tkazish uchun tuziladi hamda o‘z faoliyatini doimiy ravishda amalga oshirib boradi.

O‘zbekiston Respublikasida saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish saylov komissiyalari tomonidan ochiq va oshkora amalga oshiriladi.

Saylov komissiyalari o‘z qarorlari bilan barcha fuqarolar tanishishi uchun sharoit yaratib beradilar. Saylov komissiyalari yig‘ilishlarida nomzodlar, ishonchli vakillar, kuzatuvchilar, jurnalistlar qatnashishi mumkin.

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonunning 20-moddasida: “Siyosiy partiya saylov kampaniyasi boshlanganligi e‘lon qilingan

¹ Nurmatov N., Qosimova N. Saylov jarayonlarini yoritishda ommaviy axborot vositalarining roli. Toshkent, “O‘zbekiston” 2014 y. 6-7 betlar

kundan kamida to'rt oy oldin O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yhatga olingan, saylovda ishtirok etishini qo'llab-quvvatlovchi kamida qirq ming saylovchining imzosini to'plagan taqdirdagina deputatlikka nomzodlar ko'rsatishi mumkin", deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida saylovlarda ovoz berish jarayoni saylov kuni ovoz berish binosi uchastka saylov komissiyasi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lganda ochiladi hamda ertalab soat 06.00 dan 20.00 gacha o'tkaziladi. Ovoz berish vaqti va joyi to'g'risida uchastka saylov komissiyasi saylovchilarni kechi bilan saylovga o'n kun qolganida habardor qiladi.¹

Saylov uchastkalari saylovdan kamida oltmish kun oldin okrug saylov komissiyasi tomonidan tuziladi. Saylov uchastkalari kamida 20 nafar va ko'pi bilan 3000 nafar saylovchilar istiqomat qilayotgan hududlarda tashkil qilinadi. Uchastka saylov komissiyasi saylovga kamida qirq kun qolganda 5-19 nafar a'zodan, shu jumladan rais, rais o'rinbosari va kotibdan iborat tarkibda tuziladi. O'zbekiston Respublikasining horijiy davlatlardagi vakolathonalari hududida uchastka saylov komissiyasi raisining vazifalarini idora rahbari amalga oshiradi.

Saylovchilarni saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga doir barcha tadbirlar hususidagi axborot bilan tanishtirib borish uchun saylov komissiyalari ommaviy axborot vositalarida quyidagilarni yoritib borishga e'tibor qaratadi:

- fuqarolarning faoliyatlari;
- saylov uchastkalarining chegaralari, uchastka saylov komissiyalarining tarkibi;
- hududiy saylov komissiyalari tarkibi, ularning joylashgan manzili va ish vaqti;
- nomzodlarning ro'yhatga olinganligi;
- uchrashuv joyini ko'rsatgan holda nomzodlarning o'z saylovchilari bilan uchrashish jadvali;
- saylovchilarning ro'yhatlari;

¹ O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi yangi taxrirdagi Qonuni// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003. №9-10. 132-modda

-saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalarning ro'yhati, deputatlikka nomzodlar hususidagi ma'lumotlar, ovoz berish va saylov yakunlari haqida ma'lumot berish.

Majburiy axborot materiallari mahalliy ijro organlari tomonidan ta'sis etilgan ommaviy ahborot vositalarida O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi va hududiy saylov komissiyalari tomonidan saylov tadbirlarini amalga oshirish uchun ajratilgan mablag' evaziga chop etiladi.

Saylov jarayonida oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida ommaviy axborot vositalari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari, "Ahborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi, "Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida"gi, "Ahborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi, "Davlat sirlarini saqlash to'g'risida"gi qonunlar asosida olib borildi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq saylov komissiyalari saylov jarayonlari borasidagi ahborotni ommaviy axborot vositalarida yoritishga majburligidan qat'i nazar, jurnalistlar o'zlarini qiziqtirgan barcha ma'lumotlarni saylov komissiyalari vakillaridan olishlari mumkin.

Saylov kampaniyasi vaqtida jurnalistlarning so'rovi bo'yicha axborot olishning umumiy qoidalariga amal qilib, ommaviy ahborot vositalari tahririyatining yozma so'roviga javob uch kundan kechikmagan holda berilishi lozim. Agarda so'rovga rad javob berilsa, u asoslantirilishi, javob kechiktirilgan taqdirda ahborotni berish muddati ko'rsatilishi lozim.

Akkreditatsiya lotincha "acredere" so'zidan olingan bo'lib, "ishonch bildirish" ma'nosini anglatadi¹ va jurnalistlarning vakolatlarini e'tirof etish tartibini belgilaydi.

"O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga binoan Markaziy saylov komissiyasi matbuot, televideniya, radio vakillariga mo'ljallangan mandat namunasini belgilaydi. Jurnalist Markaziy saylov komissiyasida yoki saylov komissiyalari qoshida akkreditatsiyadan o'tkaziladi. Bu esa saylov jarayonining holis yoritish

¹ Jurnalist v poiskax informacii. Otv.red. A.Simonov.-M: 2004.-S.29

imkonini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylov bo'yicha saylov kampaniyasini yoritish uchun mahalliyva horijiy jurnalistlarni O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi huzurida akkreditatsiyadan o'tkazish tartibi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1.O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylov bo'yicha saylov kampaniyasini yoritish uchun mahalliy va horijiy jurnalistlarni akkreditatsiyadan o'tkazadi.

2.Akkreditatsiyadan o'tish uchun jurnalistlar belgilangan muddatda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

-O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi raisi nomiga yozilgan ommaviy axborot vositalari rasmiy blankasida jurnalistni akkreditatsiyadan o'tkazish to'g'risidagi ariza;

-akkreditatsiyadan o'tkazilgan jurnalistlarning 3,5h4,5 o'lchamdagi ikkita fotosurati;

-ommaviy axborot vositalari tashkiloti davlat ro'yhatidan o'tganligi haqidagi guvohnoma, elektron ommaviy axborot vositalari uchun-efirga uzatish litsenziyasi nushasi, horijiy jurnalistlar uchun- O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditatsiyadan o'tganlik haqidagi hujjatning nushasi.

Taqdim etilgan hujjatlar yuzasidan ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda akkreditatsiyadan o'tgan jurnalistlarga belgilangan namunadagi akkreditatsiya guvohnomalari (beyjklar) topshiriladi.

Jurnalistni akkreditatsiyadan o'tkazgan organ oldindan uni yig'ilishlar, kengashlar va boshqa tadbirlarning o'tkazilishi haqida habardor qilishi, tadbir bayonnomasi, stenogrammasi yoki boshqa hujjatlar bilan ta'minlashi, yig'ilishlarda qatnashishga imkon yaratishi zarur.

Mamlakatimizda saylov jarayonlarini holisona yoritish, ommaviy axborot vositalari orqali keng jamoatchilikni saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish

jarayonlaridan habardor qilish, siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlarning saylovoldi dasturlari bilan saylovchilarni tanishtirish, saylovchilarning huquqlari va vazifalari hamda ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish va bilimni oshirishga qaratilgan davra suhbatlari, seminar va boshqa anjumanlar o'tkazish, saylov kampaniyasining barcha bosqichlarida ochiqlik va oshkorolikni ta'minlash kabi vazifalarni hal etish borasida ijobiy tajriba to'plangan.¹

“O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida”gi Qonunning 27-moddasida, “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida”gi Qonunning 25-moddasida saylovoldi tashviqotiga ta'rif berilgan. Unga ko'ra: “Saylovoldi tashviqoti-saylov kampaniyasi davrida amalga oshiriladigan va saylovchilarni deputatlikka nomzodini yoki siyosiy partiyaning yoqlab ovoz berishga undashga qaratilgan faoliyat”dir.

Saylovoldi tashviqoti saylov kampaniyasi davrida, ya'ni muayyan vaqt oralig'ida amalga oshiriladi. Uning boshlanishi va tugash vaqti qonunchilikda aniq ko'rsatilgan. O'zbekistonda saylovoldi tashviqoti deputatlikka nomzodlar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yhatga olingan kundan e'tiboran boshlanadi. Saylov kuni va ovoz berish boshlanishiga 1 kun qolganida saylovoldi tashviqotini olib borish vaqti Markaziy saylov komissiyasi deputatlikka nomzodni ro'yhatga olganidan boshlab saylov kunidan 1 kun oldingacha bo'lgan muddatni qamrab oladi²

Bugungi kunda saylovoldi tashviqotini ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Boisi, jamiyatning har qanday qatlami elektron va bosma OAV bilan qaysidir darajada bog'langan. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, bugun mamlakatimizdagi har bir fuqaro kuniga o'rtacha 2-3 soat televizor qarshisida o'tirar ekan. Yoki ayni paytda Internet jahon ahborot tarmog'i abonentlarining soni o'n milliondan ortiq.

“O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida”gi Qonunga kiritilgan yangi 27-modda, “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar

¹ Nurmatov N, Kosimova N. Saylov jarayonlarini yoritishda ommaviy axborot vositalarining roli. Toshkent, “O'zbekiston”, 2014y 13-14 betlar

² Yoqubov Sh, Axmedov T. Saylovoldi tashviqoti. Toshkent, “O'zbekiston”, 2014 y 3 bet

Kengashlariga saylov to'g'risida"gi Qonunning 25-moddasiga ko'ra saylovoldi tashviqoti boshqa usullar bilan birga, OAV, televideniya, umumiy foydalanishdagi axborot-telekommunikatsiya tarmoqlari, (Internet jahon axboroti tarmog'i) orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Ommaviy ahborot vositalari sifatida gazeta, televideniya, radio va Internetning saylovoldi tashviqotidagi o'rnini juda yuqori baholash mumkin.

Bundan tashqari, davlat tomonidan "Xalq so'zi", "Narodnoe slovo", "Pravda Vostoka" gazetalarida ham siyosiy partiyalar saylovoldi tashviqotini amalga oshirish uchun bosma maydoni ajratiladi. Davlat davriy matbuot nashrlari tomonidan esa har haftada, deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalar uchun ajratiladigan eng kam bosma maydoni umumiy haftalik bosma maydonining kamida 10 foizini tashkil qilishi kerak. Bepul ajratiladigan bosma maydoni umumiy miqdori ro'yhatga olingan deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalar o'rtasida teng miqdorda taqsimlanadi. Deputatlikka nomzodlar belgilangan tartibda nodavlat ommaviy ahborot vositalari va mahalliy OAVlarda ham chiqishlar qilishi mumkin.¹

Har bir siyosiy partiya o'z nashri-gazetasiga ega. Mazkur gazetalarda siyosiy partiya hamda uning nomzodlarini tashviq etish uchun keng imkoniyat mavjud. To'g'ri, bugungi kunda barcha siyosiy partiyalarning ham gazetolari juda ko'pchilik auditoriyani qamrab olmasligi mumkin. Shunday bo'lsa-da, siyosiy partiyalar saylov kampaniyasi davrida saylovoldi tashviqotini amalga oshirish uchun o'z nashrlari bo'lgan gazetalardan unumli foydalanishi lozim. Ayni vaqtda siyosiy partiyalarning nashrlari hisoblanuvchi "XXI asr", "O'zbekiston ovozi", "Adolat", "Milliy tiklanish" gazetalarining sifatini oshirish, aynan saylov kampaniyasi davrida uning rangli bezaklarini ko'paytirish, ushbu gazetalarning reklamasini televideniyada ham amalga oshirilishiga erishish, shu orqali gazetalarning tirajini ko'paytirish muhim hisoblanadi. Bugungi kunda siyosiy partiyalarning nashr tiraji va saylovchilarning umumiy soni o'rtasidagi tafovut juda katta. Nima bo'lganda ham siyosiy partiyalar o'z gazetasi orqali saylovoldi tashviqotini, shu jumladan, siyosiy reklamani amalga oshirish mumkin.

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Axborotnomasi. №3 -4 (21-22), -T:2009.-B.46

Televideniya saylovoldi tashviqoti jarayonida alohida ahamiyatga ega bo'lgan vosita. Siyosiy partiya, deputatlikka nomzod televideniya saylovoldi tashviqoti jarayonida samarali foydalansagina, ko'pchilikning ovozi olishga erishish ehtimoli kattalashadi. Shu bois, siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlar televideniya turli chiqishlar qiladi, teledebatlarda qatnashadi, o'zlarining reklama roliklarini namoyish etishga, ularni hilma-hillashtirishga harakat qiladi. O'z navbatida, televideniya orqali tinglovchilarga murojaat qilgan partiya vakilining tashqi qiyofasi, hatti-harakati, notiqlik mahorati ushbu partiya siyosiy etikasini namoyish qiladi.¹

O'zbekistonda siyosiy partiyalarning televideniya va radiodan chiqishlarini tashkil etishda keng imtiyozlar mavjud. Jumladan. O'tgan saylovda qo'llangan normalarga ko'ra, davlat OAVning efir vaqti, bosma maydoni deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalarga bepul ajratish, har bir davlat televideniya va radioeshittirish tashkiloti tomonidan ular uchun ajratilgan bepul efir vaqtining umumiy miqdori haftasiga 40 daqiqani tashkil etishi, davlat televideniya va radioeshittirishlarida ajratilgan bepul efir vaqti praym-taym vaqtiga to'g'ri kelishi belgilanadi va shu asosda tashviqot olib boriladi.²

Har bir siyosiy partiya "O'zbekiston" va "Yoshlar" tele va radiokanallarining, mahalliy ommaviy ahborot vositalarining berilgan bepul efir vaqtdan foydalanadi. Milliy teleradiokompaniyaning viloyat radio va telekanallarida tenglik tamoyiliga rioya etilgan holda har kuni besh minut davomida siyosiy partiyalarning reklama roliklari efirga uzatib turildi. Milliy telekanal orqali deputatlikka nomzodlarning chiqishlari va debatlari berib turildi. Shuningdek, har bir siyosiy partiya 665 daqiqadan tele-hamda radioefirdan tekin foydalanish huquqini amalga oshirdi.

Informatsion texnologiyalarning rivojlanishi natijasida saylovoldi tashviqotini olib borishning vositalari ko'paymoqda. Internet jahon ahborot tarmog'i bugungi kunda katta auditoriyaga ega bo'lgan, saylovoldi tashviqotini amalga oshirishning muhim imkoniyatiga aylanib bormoqda. Aytib o'tilganidek, O'zbekiston saylov qonunchiligida Internet tizimi saylovoldi tashviqotini olib borishning yana bir

¹ Jumaev O. Siyosiy partiyalarning saylov jarayonidagi etikasi.-T: TDIOI, 2004. B.15

² O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Axborotnomasi. №3-4 (21-22), T: 2009. B.46

vositasi sifatida qayd etilgan. Ayni vaqtda, yurtimizdagi barcha siyosiy partiyalar Internetda o'z veb-saytlariga ega. O'zbekiston Halq demokratik partiyasi uchun - www.xdp.uz, O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi uchun - www.uzlider.uz, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi uchun - www.adolat.uz, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi uchun - www.milliytiklanish.uz kabi rasmiy veb-saytlar saylovoldi tashviqotini yuritishda qo'l keladi.

Agarda har bir partiyaning veb-saytlariga e'tibor bersak, ularda siyosiy partiyaning saylovoldi platformalari, ya'ni Dasturi joylashtirilgan.¹ Ushbu dastur siyosiy partiyaning saylovchilarga nimalarni kafolatlashi mumkinligi, qanday muammolarni bartaraf etishga yordam berishini yaqqol ko'rsatib turibdi. Saylov kampaniyasi davrida siyosiy partiyalar veb-saytlarida saylovoldi dasturi bilan birga, Qonunda nazarda tutilgan normalar bo'yicha turli siyosiy reklamalar, nomzodlar haqida ma'lumotlarni tashviq etishlari mumkin bo'ladi.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonunning navbatdagi 27-moddasida saylovoldi tashviqotini OAV orqali olib borishning tartibi huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Jumladan: "Saylovoldi tashviqoti olib borilayotganda davlat OAVdan foydalanishda deputatlikka nomzodlarga, siyosiy partiyalarga hajmiga ko'ra bir hil bo'lgan efir vaqti va nashr maydonini bepul berish yo'li bilan teng sharoitlar ta'minlanadi.

Deputatlikka nomzodlarga, siyosiy partiyalarga davlat OAVda haq evaziga ham efir vaqti yoki nashr maydoni ajratilishi mumkin.

Deputatlikka nomzodlarga, siyosiy partiyalarga nodavlat OAVda qonun hujjatlariga muvofiq efir vaqti yoki nashr maydoni ajratilishi mumkin.

Saylov kampaniyasida ishtirok etuvchi OAV tomonidan efir vaqti, nashr maydoni uchun belgilanadigan haq to'lash shartlari hamda boshqa talablar barcha deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalar uchun teng va bir hil bo'lishi kerak.

OAVda tarqatiladigan axborot haqiqatga mos bo'lishi, deputatlikka nomzodlarning, siyosiy partiyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak. Haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni, deputatlikka

¹ www.xdp.uz, www.uzlider.uz, www.adolat.uz, www.milliytiklanish.uz

nomzodlarning sha'ni va qadr-qimmatiga putur etkazadigan ma'lumotlarni tarqatish taqiqlanadi.

Saylovoldi tashviqoti maqsadida OAVdan foydalanish tartibi, hajmi va vaqti siyosiy partiyalar bilan kelishilgan holda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi”.¹

Saylovoldi kampaniyasida saylovoldi tashviqoti olib borilayotgan davlat OAVdan foydalanishda deputatlikka nomzodlarga, siyosiy partiyalarga teng sharoitlar ta'minlash maqsadida hajmiga ko'ra bir hil bo'lgan efir vaqti va nashr maydoni bepul berilishi demokratik printsiplarga to'la amal qilinishini anglatadi. Bunda siyosiy partiyalar o'zlarining kelgusi faoliyat dasturi bilan chiqish imkoniyatidan foydalanib, o'z nomzodlari bilan birga saylovoldi tashviqotini o'tkazishning shakli, uslublari va mazmunini mustaqil belgilaydi. Davriy matbuot nashrlari deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalarga teng miqdorda bosma maydoni, bir hil joy, bir hil shrift va boshqa tegishli sharoitlar yaratadi.²

Deputatlikka nomzodlarga, siyosiy partiyalarga davlat OAVda haq evaziga ham efir vaqti yoki nashr maydoni ajratilishi ularning saylovoldi tashviqotidagi imkoniyatlarini yanada oshiradi. Bunda saylov kampaniyasida ishtirok etuvchi OAV tomonidan efir vaqti, nashr maydoni uchun belgilanadigan haq to'lash shartlari hamda boshqa talablar barcha deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalar uchun teng va bir hil bo'lishi kerak. Bu qoida siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqotini olib borish imkoniyatini yanada kuchaytiradi. Siyosiy partiyalar o'z tashviqotini olib borishda reklama roliklari, debatlar, matbuot konferentsiyalari, mahsus ko'rsatuvlardan kengroq foydalanishi mumkin. Bunday imkoniyat faqat barcha siyosiy partiyalar uchun, teng miqdorda bo'lishi lozimligi haqidagi norma esa, muayyan deputatlikka nomzodlarga, siyosiy partiyalarga boshqa siyosiy partiyalar, deputatlikka nomzodlarga nisbatan ustunlikka ega bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Amaliyotda qo'llangan normalarga binoan, haq to'lanadigan efir vaqti miqdori yoki bosma maydonining hajmi saylovoldi tashviqoti uchun bepul ajratilgan efir vaqti yoki

¹” O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni // lex. uz

² O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Axborotnomasi. №3 3-4 (21-22). – T: 2009 yil.-B 45

bosma maydoni miqdoridan oshmasligi kerak. Nodavlat OAV deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalarga haq to'lanadigan e'fir vaqti, bosma maydoni ajratilishi mumkin. E'fir vaqti yoki bosma maydoni berilganli uchun OAVga haq to'lash siyosiy partiyaning hisob raqamidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Haq to'lanadigan e'fir vaqti yoki bosma maydoni ajratish bilan bog'liq munosabatlar OAV tahririyatlari va tegishli siyosiy partiyalar o'rtasida tuziladigan shartnoma asosida amalga oshiriladi. Bu o'rinda ko'rsatiladigan axborot xizmatlariga to'lovlar tarifi OAV tomonidan mustaqil tarzda belgilanishini aytib o'tish lozim.¹

Demokratik printsiplarga amal qilishning eng muhim sharti OAVga biron siyosiy partiyaga ustunlik berish, deputatlikka nomzodlar sha'ni va qadr qimmatiga putur etkazadigan ma'lumotlar tarqatishning taqiqlanishi va boshqa qonunda belgilab qo'yilgan me'yorlarga amal qilinishidir. Ya'ni, OAV da tarqatiladigan axborot haqiqatga mos bo'lishi, deputatlikka nomzodlarning, siyosiy partiyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak.

OAV dan foydalanish tartibi, hajmi va vaqti siyosiy partiyalar bilan kelishilgan holda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanishi ham nihoyatda muhim. Boisi, saylovoldi tashviqotni olib borishni, aniq muvofiqlashtiradigan mustaqil tashkilotning mavjud bo'lishi deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalarning teng sharoit va imkoniyat asosida o'z dasturiy chiqishlarini amalga oshirishini ta'minlaydi. Chunonchi, o'tgan saylovda ham deputatlikka nomzodlar ro'yhatga olinganidan so'ng Markaziy saylov komissiyasi kur'a tashlash yo'li bilan yoki alifbo tartibida davlat davriy matbuot nashrlarining bepul taqdim etiladigan bosma maydonini taqsimlash va siyosiy partiyalar, deputatlikka nomzodlarning saylovoldi dasturlari bepul e'lon qilinishi muddatini belgilashda alohida ahamiyatga ega bo'lgan edi.

-“televideniyada debatlar uyushtirish” texnologiyasi. Bu texnologiya eng ommaviy texnologiya hisoblanadi. Bu texnologiya orqali nomzodlarning salohiyati,

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Axborotnomasi. №3 3-4 (21-22). – T: 2009 yil.-B 47

imkoniyati va tafakkuri aniqlanadi. Nomzodlar chiqishlar qilib, o'zlarini ko'rsatadi va bu saylov jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. "Toza" texnologiyalarning bugungi kundagi eng ta'sirchan shakli ham aynan "televideniya debatlari uyushtirish" texnologiyasidir. Saylov jarayonida teledebatlardan foydalanish 1960- yillarda AQShda boshlangan bo'lsa, MDH davlatlarida Rossiyada ilk bor 1996- yilda qo'llanilgan;

-matbuot vakillari qatnashadigan saylovoldi yig'ilishlari katta ahamiyatga ega ("O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasi). Matbuot konferentsiyalari, jurnalistlar bilan uchrashuvlardagi deputatlikka nomzodning o'zining tutishi va savollarga javob bera olishi ommani o'ziga tez jalb etadi;

- Internetda, hususan, siyosiy partiyaning rasmiy veb-saytida ro'yhatga olingan nomzod portalini yaratish ham zamonaviy texnologiya hisoblanadi. Unda nomzod haqida barcha muhim ma'lumotlar joylashtiriladi. Veb-sayt orqali saylovchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarini nomzodga yo'llashi va unga javob olishi mumkin. Bu ham siyosiy partiya nomzodlarini saylov jarayonida to'playdigan ovozlarga ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, horijda ham SMS lardan foydalanish texnologiyasi qo'llanmoqda. Faqat uning matni va ko'rinishi hali juda sodda. Ularni bezakli yoki fonli tarzda yo'llash yanada samarali hisoblanadi.¹

¹ YOqubov SH. Axmedov T. Saylovoldi tashviqoti. Toshkent, "O'zbekiston", 2014y. 27-29 betlar

2.2 O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, halq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari deputatlari va O`zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlarining ommaviy axborot vositalarida yoritilishi

2014 yil 15 sentabrda mamlakatimizda muhim siyosiy jarayon- O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlariga saylov kampaniyasi boshlandi.

Ommaviy axborot vositalari saylov kampaniyasini yoritishda samarali faoliyat ko`rsatdi.

“Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq butun saylov kampaniyasi keng oshkoralik asosida tuziladi. Har bir saylovchi saylov davomida saylov okruglari va uchastkalarini tuzishga, saylov komissiyalarining tarkibi, komissiyalar joylashgan manzil va ish vaqtiga, deputatlikka nomzodlarni ro`yhatga olish, ovoz berish va saylov yakunlariga doir axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega.

Saylovchilar saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalar va nomzodlarning kelgusi faoliyat dasturi bilan tanishish huquqiga egadirlar.

Saylov komissiyalari fuqarolarni o`z ishlaridan, saylov okruglari, uchastkalari tuzilganligi, saylov komissiyalarining tarkibi, ularning joylashgan manzili va ish vaqtidan voqif etadilar, saylovchilarning ro`yhatlari, saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalarning ro`yhati bilan tanishtirdilar, deputatlikka nomzodlar hususidagi ma`lumotlar, ovoz berish va saylov yakunlaridan habardor qiladilar.

Saylov komissiyalarining saylov okruglari va uchastkalarini tuzish, saylov komissiyalarining tarkibi to`g`risidagi, shuningdek, deputatlikka nomzodlarni ro`yhatga olish, ovoz berish va saylov yakunlari haqidagi qarorlari matbuotda e`lon qilinadi.

Saylov to`g`risidagi qonunlarga asosan ommaviy axborot vositalari saylovga tayyorgarlikning borishi va saylov qanday o`tayotganini yoritib boradi. Ular saylov komissiyalari faoliyati to`g`risida faqat rasmiy ma`lumotlarni berish bilan cheklanib

qolmasdan, balki muayyan yo`nalishlar asosida faoliyat yuritishi orqali ham ushbu jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi.

Saylov komissiyalarining OAV bilan aloqalari, avvalambor, saylov komissiyalarining saylovchilar, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, davlat hokimiyati va joylardagi o`zini o`zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari, nomzodlar, ularning ishonchli vakillari, kuzatuvchilari va saylov jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan o`zaro munosabatlarining ochiqligi va shaffofligini ta`minlash, jamiyatning saylov instituti va fuqarolarning saylov huquqlarining amalga oshirilishini ta`minlashga da`vat etilgan saylov komissiyalariga nisbatan ishonchini oshirishga qaratilgandir.

Avvalambor, OAV saylovchilar o`z huquqlarini qay tartibda amalga oshirishiga ko`maklashadi, saylovlarning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ahamiyati hamda saylovga tayyorgarlik ko`rish va uni o`tkazish bo`yicha shakllangan milliy amaliyotning xususiyatlari va horijiy tajriba haqida keng ko`lamli ahborot va ma`lumotlar berib boradi.

Ikkinchidan, OAV keng jamoatchilikni saylov jarayonlari to`g`risida izchil va tizimli tarzda habardor qilib boradi.

Uchinchidan, OAV deputatlikka nomzodlar va ularni ko`rsatgan siyosiy partiyalarning saylovoldi dasturlarini elektoratga etkazish uchun minbar vazifasini bajaradi.

To`rtinchidan, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyati institutlaridan biri sifatida saylov o`tkazish jarayoni ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.¹

Mamlakatimizda saylov jarayonlarini holisona yoritish, keng jamoatchilikni saylovga tayyorgarlik ko`rish va uni o`tkazish, siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlarning saylovoldi dasturlari bilan saylovchilarni tanishtirish, saylovchilarning huquqlari va vazifalari, saylovda ovoz berish tartibi, deputatlikka nomzodlarning faoliyat ko`rsatishi kafolatlari, saylov komissiyalariga u yoki bu

¹ Nurmatov N. Ommaviy axborot vositalarining saylov kompaniyasidagi o`rni va ahamiyati. Demokratlashtirish va inson xuquqlari. 2014 yil 3 son. 35 bet

vaziyatda qanday yo'l tutish bo'yicha metodik yordam ko'rsatish, saylovchilarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish va bilim darajasini kengaytirishga qaratilgan davra suhbatlari, seminar va boshqa anjumanlar o'tkazish, saylov kampaniyasining barcha bosqichlarida ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash kabi vazifalarni hal etish borasida ijobiy tajriba to'plangan.

Ta'kidlash joizki, saylov jarayonlarida yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlar asosida faol ishtirok etayotgan horijiy va mahalliy ommaviy ahborot vositalarining soni tobora ortib bormoqda. Hususan, 2009- yildagi parlament saylovini 500 dan ortiq milliy va 200 dan ziyod horijiy ommaviy ahborot vositalari yoritib borgan hamda O'zbekiston Milliy teleradiokampaniyasi orqali saylov jarayonlari haqidagi habarlar nafaqat O'zbekiston hududiga, balki sun'iy yo'ldosh orqali 100 dan ortiq horijiy davlatga uzatilgan.

Ommaviy ahborot vositalarining saylovlarni yoritish jarayonidagi faoliyatini bir necha yo'nalishga ajratish mumkin.

Birinchi yo'nalish ma'naviy-ma'rifiy yo'nalish bo'lib, bunda saylovlarning mazmun-mohiyati va ahamiyati, tur va shakllari, mamlakatimizda o'tadigan saylovlarning ibratli jihatlari hamda bu boradagi horijiy tajriba haqida keng ko'lamli ahborot va ma'lumotlar berib boriladi.

Ikkinchi yo'nalish –targ'ibot. Bu yo'nalishda O'zbekiston Respublikasining saylov to'g'risidagi qonunchiligi imkon qadar keng sharhlanadi va talqin qilinadi, saylovchilarning huquq, majburiyatlari tushuntirib boriladi, shuningdek, siyosiy partiyalarning va fuqarolarning saylovda ishtirok etishi bilan bog'liq dolzarb masalalar huquqiy-siyosiy jihatdan har tomonlama yoritilishiga e'tibor qaratiladi.

Uchinchi yo'nalish, ahborot tarqatish faoliyatini qamraydi. Ommaviy axborot vositalari saylovga tayyorgarlikning borishi va saylov bilan bog'liq seminar-treninglar, konferentsiya va forumlar, davra suhbatlari va turli hil boshqa tadbirlarning qanday o'tayotganini izchil yoritish asnosida, avvalo saylovchilarni saylov kuni, saylov kampaniyasining boshlanganligi, saylov uchastkalari tashkil etilishi va nomzodlarning ro'yhatga olinishi bilan bog'liq jarayonlar haqida

muntazam habardor etib boradi.¹

Saylov kampaniyasini yoritish bo'yicha matbuot markazi tashkil qilinishi va uning faoliyati, saylov to'g'risidagi qonunlar to'plamlarining nashrdan chiqishi, Markaziy saylov komissiyasining majlislari va boshqa tadbirlari, siyosiy partiyalar oliy organlarining deputatlikka nomzodlar ko'rsatish bo'yicha o'tkazayotgan majlislari, saylov komissiyalarini shakllantirish natijalari haqida axborot beradi, shuningdek deputatlikka nomzodlarning ro'yhatlari, saylov okruglari ro'yhatini ularning chegaralari va saylovchilar sonini ko'rsatgan holda chop etadi.

Markaziy saylov komissiyasi tomonidan taqdim etiladigan saylov yakunlari to'g'risidagi ahborotni va Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlarning ro'yhatini deputatlarning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, partiyaga mansubligi, egallab turgan lavozimi, ish va yashash joyi, saylov okrugining tartib raqami va nomini ko'rsatgan holda o'n kundan kechiktirmay e'lon qiladi. Markaziy saylov komissiyasi e'lon qilish uchun taqdim etgan qarorlar, boshqa hujjatlar va materiallarni qonun doirasida keng yoritadi.

To'rtinchi yo'nalish- tashviqot. Ommaviy axborot vositalarida saylovoldi tashviqoti, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayon saylovchilarning muayyan siyosiy partiya va uning saylovoldi dasturini, muayyan nomzodni yoqlab yoki qarshi ovoz berishga turtki bo'lishi bilan harakterlanadi. Bunda jurnalistlar, ommaviy axborot vositalari qonun, saylov qonunchiligining har qanday partiya, guruh va shahsiy manfaatlardan ustunligini e'tirof etishi, ana shu huquqiy vositalar negizida yuzaga keladigan halol siyosiy raqobat, siyosiy odob doirasidagi adolatli bahslarda saylov kampaniyasi sub'ektlarining ijtimoiy mas'ulligiga e'tiborni qaratishi, ularning yolg'on shiorlardan foydalanishiga, aholi o'rtasida sun'iy ravishda ishonchsizlik va qo'rquv tarqatishga shart-sharoit yaratib bermasligi darkor.

Beshinchi yo'nalish- tahlil va talqin. Bu yo'nalish asosan ijtimoiy fikrni o'rganish va natijalarini ommaviy axborot vositalarida yoritish bilan bog'liq jarayonlarni ko'zda tutadi. Ko'pgina mamlakatlarda jamoatchilik fikrini o'rganish

¹ G'ulom Mirza. Saylovlar va ommaviy axborot vositalari. T. 2004 y. 22-23 betlar

yuzasidan o'tkaziladigan so'rovlarning ommaviy axborot vositalarida yoritilishini tartibga soluvchi alohida me'yorlar mavjud. Bu soha qonun bilan boshqarilishining ahamiyati shundaki, o'tkaziladigan tadqiqotlarning haqqoniylik darajasi va sezonlari, so'rov o'tkazish uslublaridagi nuqsonlar aksariyat hollarda jamoatchilikka noma'lum bo'lib qolaverishi mumkin.

Bevosita mamlakatimizdagi saylov jarayonlarini yoritish masalasiga qaytsak, fuqarolarning saylovlarga munosabati, unda ishtirok etish ko'lemi, faolligi, saylov kuni saylovlarda yashirin ovoz berish printsiplariga amal qilgan holda, ovoz bergan saylovchilarning kimga, nima uchun ovoz bergani haqidagi fikr-mulohazalarini mavjud qonunchilik doirasida o'rganish va yoritib borish tajribasi bizda mavjud. Bu o'rinda, ayniqsa, "Ijtimoiy fikr" va boshqa shu kabi professional muassasalar bilan yaqin hamkorlikda jamoatchilik orasida ijtimoiy so'rovlar o'tkazish ana shunday mahsus muassasalar tayyorlagan so'rov natijalarini matbuotda, boshqa ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish o'rinlidir.

Oltinchi yo'nalish- Jamoatchilik nazorati. Ommaviy axborot vositalari o'zining yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyati bilan saylovlarning ochiq, oshkora va qonuniy o'tishiga ko'maklashishi barobarida, bevosita, o'ziga hos jamoatchilik nazoratini ham amalga oshiradi. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi qonunning 6-moddasida qayd etilishicha, "Saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga doir barcha tadbirlarda, saylov kuni ovoz berish honalarida, ovozlarni sanab chiqishda deputatlikka nomzodlar ko'rsatgan siyosiy partiyalardan, saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan bittadan kuzatuvchi, ommaviy ahborot vositalarining vakillari, boshqa davlatlar, halqaro tashkilotlar va harakatlardan kuzatuvchilar qatnashish huquqiga egadirlar. Ularning vakolatlari tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak". Huddi shu qoida "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi qonunning 6-moddasida ham belgilangan.

Shunday qilib, avvalo, mamlakatimizda ommaviy ahborot vositalari faoliyati erkinligi va saylov erkinligini ta'minlashga oid huquqiy asos yaratilganligi, shu jumladan, saylov to'g'risidagi qonun hujjatlarining yangilanganiga ijobiy voqea

sifatida qaralmog'i kerak. Zero, ana shu huquqiy negiz bo'lajak saylovlar halqaro saylov printsiplariga mos tarzda o'tishining o'ziga hos kafolatidir.¹

Saylovoldi tashviqoti- saylov kampaniyasi davrida amalga oshiriladigan va saylovchilarni deputatlikka nomzodni yoki siyosiy partiyani yoqlab ovoz berishga undashga qaratilgan faoliyatdir. Saylov kuni va ovoz berish boshlanishiga bir kun qolganida saylovoldi tashviqotiga yo'l qo'yilmaydi. Saylovoldi tashviqoti ommaviy axborot vositalari orqali, ommaviy tadbirlar o'tkazish, bosma, audiovizual va boshqa tashviqot materiallarni chop etish va tarqatish orqali amalga oshiriladi. Saylovoldi tashviqoti maqsadida ommaviy ahborot vositalaridan foydalanish tartibi, hajmi va vaqti siyosiy partiyalar bilan kelishilgan holda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Saylovoldi tashviqotini saylovchilarga bepul yoki imtiyozli shartlarda tovarlar berish, hizmatlar ko'rsatish, shuningdek, pul mablag'lari to'lash bilan qo'shib olib borish taqiqlanadi.

Saylovoldi tashviqoti quyidagi tarzda olib boriladi:

- siyosiy partiyaning dasturi va saylovoldi platformasi to'g'risidagi ahborotni o'zining deputatlikka nomzodlarini yoqlab ovoz berishga da'vat etgan holda tarqatish;

- deputatlikka nomzod to'g'risidagi ahborotni uni yoqlab ovoz berishga da'vat etgan holda tarqatish;

- omma oldida munozaralar, bahslar, matbuot konferentsiyalari, intervyular, so'zga chiqishlar, saylovchilarning yig'ilishlari, deputatlikka nomzod, siyosiy partiya to'g'risidagi rolklarni joylashtirish;

- ommaviy ahborot vositalari, shuningdek, umumiy foydalanishdagi axborot-telekommunikatsiya tarmoqlari (shu jumladan, Internet jahon ahborot tarmog'i);

- bosma, ko'rgazmali, audiovizual va boshqa tashviqot materiallarini chiqarish hamda tarqatish.

Deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalar saylovoldi tashviqotini olib borishning qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turlari, shakllari va usullaridan

¹ G'ulom Mirzo. Saylovlar va ommaviy oxborot vositalari. T.2004y. 26-27 betlar

ham foydalanishi mumkin.

Agar Markaziy saylov komissiyasi saylovoldi tashviqoti qoidalari buzilmagan holda tarqatilgan materilani tashviqot material deb hisoblasa, aybdor shahslarni javobgarlikka tortish uchun sudga murojaat etishga haqli.

Saylovoldi tashviqotini yoritishda ommaviy axborot vositalari amal qilishi lozim bo'lgan qoidalar quyidagilar:

1-qoida. Teleradio va bosma ommaviy axborot vositalari hajmiga ko'ra bir hil bo'lgan efir vaqti va nashr maydonini ajratish.

Milliy qonunchiligimizda belgilanganidek, saylovoldi tashviqoti olib borilayotgan davlat ommaviy axborot vositalari deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalarga saylovoldi tashviqotini o'tkazish uchun teng sharoit yaratib berishlari, davriy matbuot nashrlari deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalarga saylovoldi tashviqotini o'tkazish bilan bog'liq chiqishlari uchun teng miqdorda bosma nashr maydoni, bir hil joy, bir hil shrift va boshqa shu kabi sharoitlarni ta'minlab berishlari lozim.

Masalan, O'tkazilgan saylovlarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi qaroriga ko'ra, davlat televideniyasi va radioeshittirish tashkiloti tomonidan deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalarga ajratiladigan bepul efir vaqtining umumiy miqdori haftasiga 40 daqiqa etib belgilangan. Davlat davriy matbuot nashrlari tomonidan esa har haftada ular uchun ajratiladigan eng kam bosma nashr maydoni umumiy haftalik bosma nashr maydonining kamida 10 foizini tashkil qilishi kerakligi qayd etilgan. Alohida ta'kidlash kerakki, davlat, nodavlat, hususiy tele va radio kanallarida ajratiladigan bepul efir vaqti praym-taym ko'p tomoshabinlar vaqtiga to'g'ri kelishi kerak.

Haq to'lanadigan efir vaqti yoki bosma nashr maydoni ajratish bilan bog'liq munosabatlar esa ommaviy axborot vositalari ma'muriyati bilan tegishli siyosiy partiyalar o'rtasida tuziladigan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadigan tartibda efir vaqti, bosma nashr maydoni taqdim etishda ommaviy axborot vositalariga qo'yiladigan talablar ham nazarda tutiladi.

Ular qoida tariqasida, asosan quyidagilardan iborat bo`ladi:

-ommaviy axborot vositalarida tarqatiladigan axborot haqiqatga to`g`ri kelishi, Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar, siyosiy partiyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zid bo`lmasligi kerak:

-televideniya va radio axborot dasturlarida, davriy matbuot nashrlarida saylovoldi tadbirlari o`tkazilishi to`g`risidagi ma`lumotlar alohida axborot bloki bilan berilishi hamda ularda Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar, siyosiy partiyalar uchun ajratiladigan efir vaqti va bosma nashr maydoni hajmi teng bo`lishi lozim;

-saylovoldi tashviqoti materiallari ularni taqdim qilgan Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar, siyosiy partiyalarning roziligisiz tahrir qilinishi mumkin emas;

-saylovoldi tashviqoti materiallarini e`lon qiladigan davriy matbuot nashrlarining tahririyatlari Qonunchilik palatsi deputatligiga biron-bir nomzodga, siyosiy partiyaga nashr tiraji yoki davriyligini o`zgartirish yo`li bilan ustunlik berishga haqli emas.

Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalarining tahririyatlari ishonchli bo`lmagan, Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar sha`ni va qadr-qimmatiga putur etkazadigan ma`lumotlarni tarqatishdan o`zlarini tiyishlari kerak. O`z navbatida, Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod tahririyatdan ommaviy axborot vositasida e`lon qilingan, ishonchli bo`lmagan hamda uning sha`ni va qadr-qimmatiga putur etkazadigan ma`lumotlarga raddiya berilishini talab qilishga haqli. Maqola e`lon qilish natijasida huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan deputatlikka nomzod mazkur ommaviy axborot vositasida raddiya e`lon qilishga haqli. Raddiya yoki javob mazkur rukn ostida yoki javob paydo bo`lishiga sabab bo`lgan material joylashgan o`sha sahifada e`lon qilinishi kerak.

Televideniya yoki radioeshittirish tahririyati olgan raddiya yoki javob o`sha dastur yoki ko`rsatuv turkumida efirga uzatiladi. Agar asosli va odob doirasidagi javob matnining hajmi va uzatish vaqti ommaviy axborot vositasining faoliyatiga putur etkazmasa, uni tahrir qilishga yo`l qo`yilmaydi. Ommaviy axborot vositasi

raddiya yoki javobni e'lon qilmasa yohud e'lon qilishning belgilangan muddatini buzsa, Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilishga haqli.

O'zaro tenglik tamoyilini to'liq ta'minlash maqsadida saylov kampaniyasi paytida muassislari tegishincha siyosiy partiyalar. Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar va ularning ishonchli vakillari bo'lgan kompaniyalar, tashkilotlarning hayriya faoliyati ommaviy axborot vositalarida yoritilmaydi.

2-qoida. Ommaviy axborot vositalari saylovoldi tashviqotida ishtirok etish uchun barcha ro'yhatdan o'tgan nomzodlarga teng imkoniyatlar yaratib berish.

Nomzodlarni ro'yhatdan o'tkazish muddati tugagan kundan boshlab saylovoldi tashviqoti tugaguncha nomzodlar o'z dasturlarini bosma va elektron ommaviy axborot vositalarida, Internet saytlarida tashviq qilish huquqiga egadirlar. Nomzodlar saylovoldi tashviqotini o'tkazishda barcha ommaviy axborot vositalarida chiqish qilishlari uchun teng sharoitlar yaratiladi. Nomzodlarning yoki siyosiy partiyalarning ommaviy axborot vositalarida chiqishlari ketma-ketligi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan qur'a tashlash yo'li bilan yoki alifbo tartibida belgilanadi. Nomzodlarga mahalliy ommaviy axborot vositalari ham Markaziy saylov komissiyasi tomonidan qabul qilinadigan tartibda belgilangan miqdor va hajmda bepul chiqish huquqi beriladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, saylovoldi tashviqoti uchun muayyan deputatlikka nomzodga, siyosiy partiyaga ajratilgan bepul efir vaqti yoki bosma nashr maydonidan boshqa deputatlikka nomzod, siyosiy partiya foydalanishi mumkin emas.

3-qoida. Ommaviy axborot vositalarida ijtimoiy so'rovlarni e'lon qilish.

Saylov jarayoni bilan bog'liq ijtimoiy so'rovlar e'lon qilinganda ommaviy axborot vositalari ijtimoiy so'rov o'tkazgan tashkilot, so'rovga buyurtma bergan nomzod yoki partiyani, so'rovning o'tkazilgan vaqti, axborotni yig'ish usullari va ijtimoiy so'rov natijalarini e'lon qilish lozim. Ovoz berish kuniga qadar un kun ichida, shuningdek, ovoz berish kuni jamoatchilik fikri so'rovlari natijalarini, saylov natijalari tahminlarini, o'tkazilayotgan saylov bilan bog'liq boshqa tadqiqotlarni chop etishga, shu jumladan, ularning umumiy foydalanishdagi axborot-

telekommunikatsiya tarmoqlariga joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat ommaviy axborot vositalarida deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalarga haq to'lanadigan efir vaqti miqdori yoki bosma nashr maydonining hajmi saylovoldi tashviqoti uchun bepul ajratilgan efir vaqti yoki bosma nashr maydoni hajmidan oshmasligi lozim. Ommaviy axborot vositalarida tarqatiladigan axborot haqiqatga mos bo'lishi, deputatlikka nomzodlarning, siyosiy partiyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzmasligi shart. Haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni, deputatlikka nomzodlarning sha'ni va qadr-qimmatiga putur etkazadigan ma'lumotlarni tarqatish taqiqlanadi.

Saylovoldi tadbirlari o'tkazilishi to'g'risidagi ma'lumotlar axborot dastrulari va matbuot nashrlarida alohida ahborot bloki bilan berilishi kerak.

Saylovoldi tashviqoti materiallarini ularni taqdim qilgan deputatlikka nomzodlar va siyosiy partiyalarning rozilgisiz tahrir qilish mumkin emas.

Saylovoldi tashviqoti materiallarini e'lon qiladigan davriy matbuot nashrlarining tahririyatlari biror-bir deputatlikka nomzodga va siyosiy partiyaga nashr tiraji yoki davriyligini o'zgartirish yo'li bilan ustunlik berishga haqli emas, siyosiy partiyalar tomonidan ta'sis etilgan davriy nashrlar bundan mustasno.

Deputatlikka nomzodning sha'ni, qadr-qimmati yoki obro'siga putur etkazuvchi ma'lumotlar ommaviy axborot vositasida tarqatilgan bo'lsa, ayni shu ommaviy axborot vositasida raddiya yoki javob berilishi lozim. Raddiya yoki javob mazkur ruki ostida yoki javob paydo bo'lishiga sabab bo'lgan material joylashgan o'sha sahifada e'lon qilinishi, televidenie yoki radioeshittirish tahririyati olgan raddiya yoki javob esa o'sha dastur yoki ko'rsatuvlar turkumida efirga uzatiladi.

Agar asosli va odob doirasidagi javob matnining hajmi va uzatish vaqti ommaviy ahborot vositasining faoliyatiga salbiy ta'sir qilmasa, uni tahrir qilishga yo'l qo'yilmaydi. Ommaviy ahborot vositasi raddiya yoki javobni e'lon qilmasa yohud e'lon qilishning belgilangan muddatini buzsa, deputatlikka nomzod sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilishga haqli.

Saylovoldi tashviqotini hayriya faoliyati bilan birga qo'shib olib borishga yo'l qo'yilmaydi. Saylov kampaniyasi davrida muassislari tegishli siyosiy partiyalar,

deputatlikka nomzodlar va ularning ishonchli vakillari bo'lgan tashkilotlarning hayriya faoliyati ommaviy ahborot vositalarida yoritilmaydi.

Ovoz berish kuniga qadar uch kun ichida, shuningdek, ovoz berish kuni jamoatchilik fikri so'rovlari natijalarini, saylov natijalarini tahminlarini, o'tkazilayotgan saylov bilan bog'liq boshqa tadqiqotlarni chop etishga, shu jumladan, ularni umumiy foydalanishdagi axborot- telekommunikatsiya tarmoqlariga joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Ommaviy axborot vositalari ajratiladigan efir vaqti va bosma nashr maydonini hisobga olib borishlari hamda Markaziy saylov komissiyasiga tegishli ma'lumotni har haftada taqdim qilishlari kerak.

Hozirgi kunda mamlakatimizda 4 ta siyosiy partiya faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ularning har biri o'z matbuot organi, Internet tarmog'ida veb-saytiga ega. Hususan, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining asosiy nashri bo'lgan "XXI ASR" ijtimoiy-siyosiy gazetasi 2004 yil 1 yanvardan chop etila boshlangan. Partiya veb-sayti – WWW.uzlidep.uz Unda O'zLiDePning Parlamentdagi fraksiyasi va mahalliy Kengashlardagi deputatlik guruhlar faoliyati, tarihi, rahbar organlari hujjatlari hamda bo'limlariga oid ma'lumotlar joylashtirilgan.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining bosma nashri "Milliy tiklanish" ijtimoiy-siyosiy gazetasi hisoblanadi. Gazeta 2008 yil 21 iyunda O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi va "Fidokorlar" Milliy demokratik partiyasi birlashganidan so'ng, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Markaziy Kengashining I Plenum yig'ilishida ta'sis etildi va 2008 yil 30 oktabrdan e'tiboran chop etila boshladi. Gazeta tahririyatining asosiy vazifasi O'zbekiston "Milliy tiklanish" partiyasi va uning viloyat, tuman, shahar va boshlang'ich tashkilotlari faoliyatida oshkorolikni ta'minlash, partiyaning masqad va g'oyalarini targ'ib etish, Vatan ravnaqi yo'lida milliy g'urur hamda milliy manfaat ustuvorligi uchun kurash olib borish, hurfikrli odamlarni, yoshlarni Vatan manfaati yo'lida birlashtirishga hizmat qiladi.

O'zbekiston Halq demokratik partiyasining markaziy matbuot nashri

“O‘zbekiston ovozi” va “Golos Uzbekistana” gazetari hisoblanadi. Bundan tashqari, O‘zbekiston HDP mahalliy matbuot nashrlariga ham ega. Bular O‘zHDP Qoraqalpog‘iston Respublikasi kengashining “Qarakalpakstan hao‘azi”, Navoiy viloyatida chop etiladigan “Xalq ishonchi”, Namangan viloyat partiya kengashining “Xalq irodasi”, Surhondaryo viloyat partiya kengashining “Xalq yo‘li” gazetalaridan iborat. O‘zbekiston XDPning veb-sayti www.ndp.uz.

O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining bosh nashri “Adolat” ijtimoiy-siyosiy gazetasi hisoblanib, u 1995 yil 22 fevraldan chiqa boshlagan. O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining veb-sayti – www.adolat/uz.¹

Saylovoldi tashviqotini olib borishda mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan partiyalarning eng muhim vazifalari, avvalo, o‘z partiyasining maqsad va faoliyatlari, uning mamlakat siyosiy jarayonlaridagi ishtiroki, dasturiy platformasida ilgari surilgan g‘oyalar, elektorat manfaatlar bilan bog‘liq ahborotlarni o‘z o‘quvchilariga vaqtida, to‘g‘ri va haqqoniy etkazishdir. Har bir siyosiy partiyaning markaziy organi tarkibida matbuot xizmatlari tashkil qilingan. Ta’kidlash joizki, matbuot xizmatlarining asosiy vazifasi siyosiy partiya faoliyatidan keng jamoatchilikni, shu jumladan, o‘z elektoratini habardor qilish, partiya nizomi va dasturida belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda mafkuraviy g‘oyalarni targ‘ib qilish va shu tariqa partiya nisbatan jamoatchilikning ijobiy fikrini shakllantirishga ko‘maklashishdan iboratdir. Matbuot xizmatlari ish faoliyatining samaradorligini oshirishda muayyan demokratik tamoyillarga amal qilish kutilgan natijalarga olib kelishi mumkin. Demokratik jamiyatda matbuot xizmatlarining faoliyati quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

- tezkorlik;
- haqqoniylik;
- tegishli siyosiy partiya faoliyatiga oid press-revizlarning o‘z vaqtida chiqarib turilishi;
- ommaviy ahborot vositalarining har biriga individual tartibda yondashish;
- axborot materiallarini manzilli tayyorlash;

¹ Nurmatov N, Abdullaev J. Saylovlar va ommaviy axborot vositalari. -T:2009. 52 bet

- matbuot hizmati hodimining tegishli siyosiy partiya faoliyatiga oid ma'lumotlarni berishda o'z fikri hamda nuqtai nazarini bildirmaslik va boshqalar.

Siyosiy partiyalar va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlashda matbuot anjumanlarini muntazam ravishda o'tkazib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Matbuot anjumanlari orqali jamoatchilikka rasmiy siyosiy axborot etkazildi hamda siyosiy partiya va ommaviy axborot vositalari o'rtasida muayyan darajada muntazam aloqa yuzaga keladi. Agar ushbu anjumanlarga jamoatchilik fikrini shakllantirish, siyosiy partiya mavqeini doimiy oshirib borish, siyosatchilar "siyosiy imiji"ni yaratishning qulay shakli sifatida qaralsa, ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga nisbatan esa siyosiy sohaga oid axborotning muhim manbai sifatida yondashiladi. Shuningdek, matbuot xizmatlari tomonidan siyosiy partiyalar faoliyati yuzasidan turli hil uchrashuvlar, brifinglar va anjumanlar o'tkazilishi barobarida ommaviy axborot vositalari bilan ular o'rtasida bevosita muloqat yuzaga keladi hamda jurnalistlar birinchi shahslardan ishonchli, tezkor, jonli va keng qamrovli ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.¹

O'zbekiston Respublikasidagi siyosiy partiyalar tomonidan partiya markaziy rahbariyati va ijroiya organlari faoliyatini ommaviy axborot vositalari orqali doimiy tarzda yoritish, partiya va uning barcha tuzilmalari tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarni muvofiqlashtirib borish, partiyaning yahlit ahborot siyosati kontseptsiyasi ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida matbuot xizmatlari tashkil etilgan.

Saylov jarayonida partiya nashrlarining faolligi oshib boradi. O'z mablag'lari hisobiga adadini ko'paytirishi, qo'shimcha sonlar chiqarishi mumkin. Partiya nashrlarining saylovlarni yoritish jarayonidagi faoliyatini bir necha yo'nalishga ajratish mumkin.²

Birinchi yo'nalish saylov jarayoni. Bunda saylovlarning mazmun-mohiyati va ahamiyati, turi va shakllari, yurtimizda o'tadigan saylovlarning ibratli jihatlari hamda bu boradagi horijiy tajriba haqida keng ko'lamli ahborot va ma'lumotlar

¹ Nurmatov N. Abdullaev J. Saylovlar va ommaviy axborot vositalari. –T: 2009. 52 bet

² R.Quvvatov. OAV va saylov jarayonlari. 02.09.2014 // [http:// www.dustlikbayrog'i.uz](http://www.dustlikbayrog'i.uz)

berib boriladi.

**Ikkinchi yo`nalish** huquqiy asos. Bunda O`zbekiston Respublikasining saylov to`g`risidagi qonunchiligi imkon qadar keng sharhlanadi va talqin qilinadi. Saylovchilarning huquqlari, majburiyatlari tushuntirib boriladi, shuningdek, siyosiy partiyalar va fuqarolarning saylovda ishtirok etishi bilan bog`liq dolzarb masalalarning huquqiy-siyosiy jihatdan har tomonlama yoritilishiga e`tibor qaratiladi.

**Uchinchi yo`nalish-** saylov jarayonida partiyalar faoliyati. Partiya nashrlarida partiyalarning saylovga tayyorgarligi va saylov bilan bog`liq matbuot anjumanlari, saylovchilar bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari hamda turli hil boshqa tadbirlarning qanday o`tayotgani, saylov kuni, saylovning boshlanishi, saylov uchastkalarining tashkil etilishi va nomzodlarning ro`yhatga olinishi kabi jarayonlar yoritib boriladi.

Saylov jarayonlarini yoritish bo`yicha matbuot markazi tashkil qilinishi va uning faoliyati, saylov to`g`risidagi qonunlar to`plamlarining nashrdan chiqishi, Markaziy saylov komissiyasining majlislari va boshqa tadbirlari, siyosiy partiyalar oliy organlarining deputatlikka nomzodlar ko`rsatish bo`yicha o`tkazayotgan majlislari va boshqa ma`lumotlar chop etiladi.

To`rtinchi yo`nalish saylovoldi tashviqoti. Partiya nashrlarida saylovoldi tashviqotini olib borish muhim ahamiyatga ega bo`lib, bu jarayon saylovchilarning muayyan siyosiy partiya va uning saylovoldi dasturini, muayyan nomzodni yoqlab yoki qarshi ovoz berishga turtki bo`ladi. Bunda halol siyosiy raqobat, siyosiy odob doirasidagi adolatli bahslarda saylov kampaniyasi sub`ektlarining ijtimoiy mas`ulligiga e`tibor qaratish, ularning yolg`on ishoralardan foydalanishiga, aholi o`rtasida sun`iy ravishda ishonchsizlik va turli mish-mishlar tarqatishga sharoit yaratib bermaslik darkor.

**Beshinchi yo`nalish** jamoatchilik fikri. Mazkur yo`nalish, asosan, partiya faoliyati to`g`risidagi ijtimoiy fikrni o`rganish va uning natijalarini o`z nashrida yoritish bilan bog`liq jarayonlarni ko`zda tutadi. Ommaviy axborot vositalarida jamoatchilik fikri noto`g`ri berilishini oldini olish maqsadida so`rovlar o`tkazish va

ular natijalarini e'lon qilishni taqiqlab qo'yishdan ko'ra, bunday so'rovlar asosli taqdim etilishini ta'minlovchi tegishli ko'rsatmalarga amal qilinishi bu borada ilg'or professional andozalar joriy etilishining muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Oltinchi yo'nalish nazorat. Partiya nashri saylovlarning ochiq, oshkora va qonuniy o'tishiga ko'maklashishi barobarida, bevosita o'ziga hos jamoatchilik nazoratini ham amalga oshiradi. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasida qayd etilishicha, saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga doir barcha tadbirlarda, shuningdek, saylov kuni ovoz berish honalarida ovozlarni sanab chiqishda deputatlikka nomzodlar ko'rsatgan siyosiy partiyalarning kuzatuvchilari, ommaviy axborot vositalarining vakillari, boshqa davlatlar, halqaro tashkilotlar va harakatlardan kuzatuvchilar qatnashish huquqiga egadirlar. Bundan tashqari, ovozlarni sanab chiqishda siyosiy partiyalarning vakolatli vakillari ham ishtirok etishi mumkin. Ularning vakolatlari tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Huddi shunday qoida "Halq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasida ham belgilangan.¹

Hulosa qilib aytganda, O'zbekistonda saylovlarning ochiqligi, oshkoraligi saylov tizimining eng muhim tamoyillaridan hisoblanadi. Saylov jarayonining jahon andozalari asosida o'tishda ommaviy ahborot vositalari muhim rol o'ynaydi. Saylovoldi tashviqoti hususidagi materiallarning aksariyati ommaviy axborot vositalari va zamonaviy ahborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda tarqatiladi. Bu o'rinda televideniya va Internetning imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etishini hamda mamlakatimizda ushbu sohalar rivoj topganini ta'kidlash joiz. Siyosiy partiya va deputatlikka nomzodlar saylovoldi tashviqotini olib borishda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy ahborot texnologiyalaridan foydalanish uchun huquqiy mexanizmlardan samarali foydalanishlari mumkin. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, haqiqat va holislik jurnalistikaning doimiy, o'zgarmas qoidasiga aylanmog'i shart. Jurnalstning har bir so'zi mamlakatimizda

¹ R.Quvvatov. OAV va saylov jarayonlari. 02.09.2014 // [http:// www.dustlikbayrog'i.uz](http://www.dustlikbayrog'i.uz)

saylov bo'yicha amal qilayotgan qonunchilik bazasiga asoslangan bo'lishi lozim. Saylov jarayonini yoritishda ommaviy ahborot vositalari vakillari soha ichiga chuqurroq kirib borishi va milliy qonunchilikni yanada puhta o'rganishi lozim.

2015- yil 27- yanvar kuni Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston Milliy teleradiokampaniyasi, O'zbekiston Milliy ahborot agentligi, "Jahon" axborot agentligi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish jarayonini yoritish to'g'risida ikki tomonlama bitimlar imzolandi. Ushbu bitimlar saylov to'g'risidagi milliy qonun hujjatlari- Konstitutsiyamizning tegishli qoidalarini, "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi va saylov jarayonini tartibga soladigan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni aholi o'rtasida tushuntirish bo'yicha samarali faoliyat tashkil etishga qaratilgan. Ularni amalga oshirish doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar uchun ommaviy axborot vositalaridan saylovoldi tashviqotini olib borish maqsadlarida foydalanishda teng imkoniyatlar yaratish, ya'ni, teng hajmda e'fir vaqti va nashr maydoni ajratishga alohida e'tibor beriladi.

Ikki tomonlama imzolangan bitimlarda tomonlar O'zbekiston MTRK tele va radiokanallari, mamlakatimizning etakchi axborot agentliklari va bosma ommaviy axborot vositalari orqali o'z vaqtida saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish jarayoniga oid axborotlarni tarqatish borasida hamkorlik qiladi.¹

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi OAV bilan hamkorlik qilishga, saylovlarning axborot ta'minoti sohasida saylov jarayoni barcha ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Markaziy saylov komissiyasi tomonidan 2014 yilgi saylovni yoritish bo'yicha Respublika matbuot markazi tashkil qilindi. Saylov kampaniyasining asosiy bosqichlariga bag'ishlangan brifinglar, matbuot anjumanlari o'tkazish ko'zda tutilgan.

Markaziy saylov komissiyasining OAV bilan hamkorligining asosiy vazifasi

¹ Turkiston. 2015 y. 28 yanvar

saylovchilarning saylovlarda erkin ishtirok etishi, siyosiy partiyalar va nomzodlarning saylovoldi dasturlari bilan atroflicha tanishishi, ovoz berish kuni ongli ravishda qaror qabul qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdir.

Jurnalistlar fuqarolarni saylovlar haqida to'liq va holis axborot bilan ta'minlash, saylov kampaniyasini amaldagi qonunchilik talablari doirasida professional yoritishga katta mas'uliyat bilan yondashishi zarur. Binobarin, OAV demokratik saylovlar, ularni o'tkazishning ochiqligi, oshkoraligi va shaffofligining muhim vositasi bo'lib, mazkur siyosiy jarayonda fuqarolik jamiyatining faol ishtirokiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Qonunchilikka ko'ra saylovoldi tashviqoti olib borilayotganda davlat ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda deputatlikka nomzodlarga, siyosiy partiyalarga hajmiga ko'ra bir hil bo'lgan e'fir vaqti va nashr maydonini bepul berish yo'li bilan teng sharoitlar ta'minlanadi. Saylovoldi tashviqoti maqsadida ommaviy axborot vositalaridan foydalanish tartibi, hajmi va vaqti siyosiy partiyalar bilan kelishilgan holda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda teng sharoitlarni ta'minlash saylov jarayonining barcha ishtirokchilari uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Mazkur demokratik printsip saylov qonunchiligimizda o'z ifodasini topgan.

Bu, tabiiyki, ommaviy axborot vositalariga katta mas'uliyat yuklaydi. Saylovlarning transparentligi, ularni o'tkazishning oshkoroligi va adolatligi, mazkur jarayonning jamiyatga hisobdorligini ta'minlash ko'p jihatdan OAVga bog'liq.¹

Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazuvchi 135 ta saylov okrugining barchasida saylov yakunlandi. Natijaga ko'ra, 150 nafar deputat, shu jumladan, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati- O'zbekiston Liberal demokratik partiyasidan 52 nafar, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan 36 nafar, O'zbekiston Halq demokratik partiyasidan 27 nafar, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan 20 nafar, O'zbekiston ekologik harakatidan 15 nafar deputat parlament quyi palatasiga saylandi. Deputatlarning 24 nafari yoki 16 foizi

¹ Xidirov Q. Ochiqlik, xaqqoniylik va xolislik. Xalq so'zi. 2014 yil. 30 sentabr

hotin-qizlardir. Saylanganlarning 40 nafari yoki 27 foizi esa ilgari Qonunchilik palatasida deputat bo`lib faoliyat yuritgan.

Yurtimizda 2014 yilgi saylovga tayyorgarlik ko`rish va uni o`tkazish bo`yicha tadbirlar dasturida ko`zda tutilgan tashkiliy-huquqiy ishlar izchil tarzda amalga oshirildi hamda saylov kampaniyasi davrida qonun hujjatlarida belgilangan qoida va talablarga to`liq amal qilindi. Saylov jarayonining ochiqligi va oshkoraligini ta`minlashda OAV vakillari, mahalliy va horijiy kuzatuvchilarning faoliyati muhim omil bo`lib hizmat qildi. 550 dan ortiq milliy va 120 dan ziyod horijiy ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, 180 dan ortiq internet-nashrlari saylov jarayonini yoritib boradi, ushbu jarayon bilan bog`liq 9 mingdan ortiq materiallar e`lon qilindi.¹

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari deputatligiga nomzodlarning saylovchilar bilan uchrashuvlari, siyosiy partiyalarning saylovoldi dasturlari, saylov qonunchiligiga oid materiallar, Markaziy saylov komissiyasi faoliyati va matbuot anjumanlari, saylov okruglari va uchastka saylov komissiyalarini ishlari, saylovga tayyorgarlikning ahvoli, partiya faollarining chiqishlari respublikamiz Ommaviy axborot vositalarida berib borildi. Takroriy saylov natijalari, saylov yakunlari haqidagi ma`lumotlar ham ommaviy axborot vositalari orqali halqimizga o`z vaqtida etkazildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Saylovi bilan bog`liq Markaziy saylov komissiyasi qarorlari, tadbirlari va butun faoliyati, prezidentlikka nomzodlarning tarjimaiy holi, dasturlari, saylovchilar bilan uchrashuvlari, saylovga tayyorgarlikning ahvoli, saylovoldi tashviqoti, saylov jarayonlari, uning yakunlari respublikamiz ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib borildi.

O`zbekiston halq demokratik partiyasi tashviqotining eng samarali vositalaridan bo`lgan OAV imkoniyatlaridan foydalanishga alohida e`tibor qaratilmoqda.

Ma`lumki, milliy qonunchiligimizga muvofiq, markaziy va mahalliy darajadagi

¹ Turkiston 2015 yil, 7 yanvar

ommaviy axborot vositalaridan saylovoldi tashviqoti maqsadida foydalanishda barcha siyosiy partiyalar uchun teng efir vaqti va nashr maydoni ajratilgan.

Shu jumladan, bugungi kunga qadar amalga oshirilayotgan ishlar faol tarzda yoritib borilmoqda. Jumladan, 2015- yilning 16-fevral kunidan boshlab, O'zbekiston Halq demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Hotamjon Ketmonovning Farg'ona, Namangan, Andijon, Toshkent viloyatlari, Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Horazm, Navoiy, Buhoro, Jizzah, Samarqand va Sirdaryo viloyatlari saylovchilari bilan o'tkazgan uchrashuvlari O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi telekanallarining informatsion dasturlarida faol yoritildi.

Shundan so'ng, joriy yilning 25 fevral- 8 mart kunlari O'zbekiston MTRKning "O'zbekiston", "Yoshlar" va "Poytaxt" telekanallarida nomzodning Namangan, Andijon, Samarqand, Jizzah, Navoiy, Horazm, Buhoro, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahri saylovchilari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvlari har bir telekanalda 2 martadan, jami 18 marotaba to'liq efiga uzatildi. Partiyaning maqsad va g'oyalari aks ettirilgan rolik ham namoyish etildi.

Shuningdek, "Xalq so'zi" va "Narodnoe slovo" hamda "Pravda Vostoka" gazetalari sahifalarida saylovoldi faoliyatimiz izchil yoritib kelinmoqda. Bugungi kunga qadar mazkur nashrlarda 11 marotabadan tashviqot faoliyatimizga doir materiallar e'lon qilindi.

O'rni kelganda, ushbu yo'nalishdagi tashviqot jarayoni davomida partiyaning markaziy va hududiy nashrlari, shuningdek, mahalliy hamda nodavlat ommaviy axborot vositalari imkoniyatidan ham samarali foydalanilmoqda. Umuman olganda, hozirgi vaqtgacha faoliyatimizga doir ahborotlar OAV orqali 334 marotaba yoritildi.¹

Milliy qonunchiligimizga muvofiq, Markaziy saylov komissiyasi tomonidan siyosiy partiyalardan ko'rsatilgan nomzodlarga tashviqot yuritish uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda teng imkoniyatlar yaratilgan. Bu

¹ Komilov R. Prezident saylovi siyosiy partiyaning jamiyatdagi nufuzi va o'rnini belgilab beradi. Xalq so'zi. 2015 y. 10 mart

imkoniyatlardan O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan ko'rsatilgan nomzod unumli foydalanmoqda.

Hususan shu kunga qadar "Xalq so'zi", "Narodnoe slova", "Pravda Vostoka" gazetalarda saylovoldi tashviqoti faoliyatimizga doir 12 ta maqola chop etildi.

Shuningdek, 16-fevraldan boshlab, O'zbekiston "Adolat" SDPdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Narimon Umarovning saylovchilar bilan o'tkazgan uchrashuvlari O'zbekiston Milliy teleradiokampaniyasining markaziy va hududiy telekanallaridagi informatsion dasturlarda faol yoritildi.

Shu bilan birga, O'zbekiston MTRKning "O'zbekiston" va "Yoshlar" teleradiokanallarida hamda mahalliy telekanallarda nomzodning saylovchilar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvlari efirga ikki marotabadan to'liq uzatib kelinmoqda. Partiyaning dasturiy maqsad va g'oyalarini ifodalovchi roliklar namoyish etilayapti.²

Prezidentlikka nomzod hamda uning ishonchli vakillari tomonidan saylovchilar bilan uchrashuvlar haqida mahalliy bosma nashrlarda shu kunga qadar jami 100 dan ortiq maqola e'lon qilindi. Shu bilan birga, yuqorida qayd etilgan markaziy nashrlar va 30 ga yaqin mahalliy gazetalarda O'zbekiston "Adolat" SDPdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Narimon Umarovning tarjimai holi hamda dasturi 5 ta tilda to'liq chop qilindi.

Qolaversa, Prezidentlikka nomzodning saylovoldi tashviqoti davridagi faoliyati va unga doir habarlar respublika axborot agentliklari hamda mahalliy hokimiyatlar elektron saytlarida, 10 dan ortiq informatsion portallarda, mamlakatimizdagi mavjud nodavlat ommaviy axborot vositalarida ham e'lon qilinmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, saylovoldi tashviqotining muhim vositalaridan yana biri tashqi reklama va jozibador shiorlar sanaladi. Ayni paytda saylovoldi tashviqoti doirasida markazda va hududlarda Prezidentlikka nomzod Narimon Umarovga ovoz berishga chaqiruvchi jami 829 ta banner o'zbek, qoraqalpoq va rus tillarida tayyorlanib, reklama tahtalarga joylashtirildi.

Shuningdek, partiya nomzodining tarjimai holi va Saylovoldi dasturi aks etgan "Adolat" gazetasining 5800 nushadagi 2 ta soni hamda 80000 nushadagi o'zbek va

² Raxmonov A. Saylovoldi tashviqoti teng sharoitlarda o'tkazilmoqda. Xalq so'zi. 2015 yil 13 mart

rus tillarida chop etilgan broshyuralar va ko'p ming sonli bosma targ'ibot materiallari tarqatilmoqda.

Saylovda fuqarolarimizning yuksak huquqiy madaniyati va siyosiy faolligi yaqqol namoyon bo'ldi. Saylovchilar ovoz berishda faol qatnashish orqali yurtimizda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlashini yana bir bor ifoda etdilar.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi okrug saylov komissiyalaridan kelgan bayonnomalrga asosan 2015 yil 29 mart kuni bo'lib o'tgan saylovda saylovchilar ro'yhatiga kiritilgan 20 million 798 ming 52 nafar saylovchidan 18 million 942 ming 349 nafari ovoz berishda ishtirok etganini aniqladi. Bu saylovchilar umumiy sonining 91,08 foizini tashkil qiladi.

Saylov natijalari ko'rsatganidek, ushbu muhim tadbirda ishtirok etgan saylovchilarning 17 million 122 ming 597 nafari yoki 90,39 foizi Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati- O'zbekiston Liberal demokratik partiyasidan ko'rsatilgan nomzod Islom Abdug'anievich Karimovni yoqlab ovoz berdi. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan ko'rsatilgan nomzod Akmal Holmatovich Saidovga 582 ming 688 nafar yoki 3,08 foiz saylovchi, O'zbekiston Halq demokratik partiyasidan ko'rsatilgan nomzod Hotamjon Abdurahmonovich Ketmonovga 552 ming 309 nafar yoki 2,92 foiz saylovchi, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan ko'rsatilgan nomzod Narimon Majitovich Umarovga 389 ming 24 nafar yoki 2,05 foiz saylovchi ovoz berdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90, 117-moddalariga, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonunning 14,35,36-moddalariga, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi Qonunning 5,9-moddalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Islom Abdug'anievich Karimovni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblash to'g'risida qaror qabul qildi.

Majlisda saylov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi qonunlarga muvofiq fuqarolarning o'z hohish-irodasini erkin

bildirish huquqini ta'minlagan hamda umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish tamoyillariga rioya qilingan holda bo'lib o'tganligi ta'kidlandi.

Saylovni kuzatishda beshta halqaro tashkilot-Yevropada havfsizlik va hamkorlik tashkiloti Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Shanhay hamkorlik tashkiloti, Butunjahon saylov organlari assotsiatsiyasi va Islom hamkorlik tashkiloti hamda Amerika, Yevropa, Osiyo va Afrikaning 43 davlatidan 299 nafar kuzatuvchi ishtirok etgani saylov kampaniyasi demokratik ruhda, ochiq va shaffof o'tganiga yana bir yorqin dalildir. Qonunchilikka muvofiq, siyosiy partiyalardan 35 mingdan ortiq kuzatuvchilar saylov jarayonini monitoring qilib bordi.

Majlisda qayd etilganidek, saylovning ochiqligi va oshkoraligini ta'minlashda ommaviy axborot vositalari nihoyatda muhim o'rin tutadi. Prezident saylovini mamlakatimizning qariyb 600 ta hamda 180 dan ziyod horijiy ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, qariyb 180 ta horijiy va milliy internet nashri yoritib bordi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini yoritish bo'yicha Respublika matbuot markazi hamda hududiy matbuot markazlari tomonidan saylov kampaniyasining muhim bosqichlariga bag'ishlangan etmishdan ortiq matbuot anjumanlari, brifinglar va onlayn brifinglar o'tkazildi. Ularda mamlakatimiz hamda chet elning 980 nafardan ziyod jurnalistlar ishtirok etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq 12 ming 750 dan ortiq maqola va axborot materiallari, ko'rsatuv hamda eshittirishlar e'lon qilindi.

Xulosa

O'zbekistonda mustaqillik yillarida demokratik saylov tizimi shakllandi. Saylov tizimining huquqiy asoslari mustahkamlandi

Aholining saylov huquqi erkinligini ta'minlashga, saylov qonunchiligini yanada takomillashtirishga katta e'tibor berildi.

Yurtboshimizning "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi"ga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32,78,80,83,93,96,98, 103,117 moddalariga, saylovga oid qonunlarga, markaziy saylov komissiyasi to'g'risidagi qonunga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Shuningdek, axborot sohasi isloh qilib, aholining axborot va so'z erkinligini ta'minlash bo'yicha samarali ishlar olib borildi.

O'zbekistonda 2014, 2015- yillarda o'tgan saylovlar ochiq, oshkora, qonuniylik asosida, holisona o'tkazildi. Qonun buzilish holatlariga yo'l qo'yilmadi.

Saylovlarning mazmun mohiyatini, unda siyosiy partiyalarning roli va o'rnini, saylovga oid barcha qonunlar mohiyati aholiga o'z vaqtida etkazishda Ommaviy axborot vositalarining o'zni va ahamiyati katta bo'ldi.

Saylov qonunchiligiga kiritilgan o'zgartishlar ommaviy axborot vositalari orqali axoliga o'z vaqtida etkazildi.

Ommaviy axborot vositalariga oid qonunlar yanada takomillashtirildi. Saylov jarayoni davrida ommaviy axborot vositalarining ta'sirchanligi, tezkorligi yanada oshdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, halq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari deputatlari saylovi jarayonida Markaziy saylov komissiyasi faoliyati, deputatlikka nomzodlarning saylovchilar bilan uchrashuvlari, siyosiy partiyalarning saylovoldi dasturlari, butun saylov jarayoni ma'lumotlari ommaviy axborot vositalariga o'z vaqtida berib borildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini yoritishda Ommaviy axborot vositalarining roli katta bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarning saylovchilar bilan

uchrashuvlari, tarjimaiy holi va dasturlar, siyosiy partiyalar huzuridagi saylovoldi tashviqoti shtablari faoliyati, Markaziy saylov komissiyasining va siyosiy partiyalarning saylov bilan bog'liq butun faoliyatlari Ommaviy axborot vositalarida o'zining aksini topdi.

2014 yil va 2015 yilgi saylovlarning yakunlari ommaviy axborot vositalarida o'z vaqtida yoritildi.

Saylov jarayonida ommaviy axborot vositalarining tezkorligi, ta'sirchanligi, haqqoniyligi, roli va ahamiyati yanada oshdi.

Saylov jarayonida ommaviy axborot vositalari faoliyati eng muhim jihati shundaki barcha siyosiy partiyalarga teng shart-sharoit va imkoniyatlar yaratildi. Ommaviy axborot vositalari o'z faoliyatida amaldagi tegishli qonunlarga qattiq rioya qilindi. Shuning uchun ekologik harakatidan deputatlar saylovi jarayonlarini atroflicha yoritishga ommaviy axborot vositalari katta e'tibor berdilar.

Bizningcha ommaviy axborot vositalari bundan keyin mamlakatimizda saylovlarning demokratik asosda, qonun talablari darajasida o'tganligini, deputatlarning faoliyatini, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarini haqqoniy, holisona, o'z vaqtida yoritishga e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Ommaviy axborot vositalarining davlat hokimiyati faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini shakllantirishdagi rolini yanada oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" 2014 y
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish kontseptsiyasi. T. "O'zbekiston", 2010y.
3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. T. "O'zbekiston", 1999y 380 bet
4. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. 8-jild. Toshkent. "O'zbekiston" 2000y
5. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Toshkent. "O'zbekiston", 2002y.
6. Karimov I.A. "Ommaviy ahborot vositalarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha soliq imtiyozlari va afzalliklar berish to'g'risida"gi qaror . Xalq so'zi. 2011 y. 31 dekabr.
7. O'zbekiston Respublikasining saylov to'g'risidagi qonunlari. Toshkent, "Adolat", 2014 y
8. "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1994y. 10-son.
9. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 2002y. 12-son.
10. O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 2004y. 5-son
11. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T. 2006y.
12. O'sarov O. Davlat hokimiyati organlarida jurnalistlarni akkreditatsiya qilish majburiyatmi yoki zarurat?. T. 2004y

13. Ahmedov D, Hoshimhonov A. O'zbekiston Respublikasida saylov huquqi va jarayoni. Toshkent, "O'zbekiston" 2007y.
14. Abdullaev J. Saylov va ommaviy axborot vositalari. T. 2007 y.
15. Abduazizova N. Ommaviy ahborot vositalarini yanada liberallashtirish. Jamiyat va boshqaruv. 2005y. 2-son
16. Abdullaev J. OAV faoliyati va konstitutsiyaviy-huquqiy asoslar. Inson va qonun. 2008y. 12 fevral
17. Domonova Sh. Muhim siyosiy jarayon: demokratik tamoyillar asosida o'tishda ommaviy axborot vositalarining o'rnini beqiyos. Milliy tiklanish. 2014y. 16 iyul
18. Latifov A. Saylovlarda siyosiy partiyalar va harakatlar faolligi. nnp huquqburch. ur.uz vien
19. Nurmatov N. Abdullaev J. Saylovlar va ommaviy axborot vositalari. T. 2009 y
20. Nurmetov N. Qosimova N. Saylov jarayonlarini yoritishda ommaviy axborot vositalarining roli. Toshkent "O'zbekiston", 2004 y
21. Nurmatov N. Ommaviy ahborot vositalarining saylov kampnaiyasidagi o'rnini va ahamiyati. Demokratlashtirish va inson huquqlari. 2014y. 3-son. 33-37 betlar
22. Najimov M. Saylovlar jarayonida ommaviy axborot vositalarining ishtiroki. Turkiston. 2009 y 18 noyabr
23. Quvvatov R. OAV va saylov jarayonlari. 02.09.2014 hnp www dustlik bayrog'i. uz
24. Komilov R. Prezident saylovi siyosiy partiyaning jamiyatdagi nufuzi va o'rnini belgilab beradi. Halq so'zi. 2015y. 10 mart
25. Kanyazov K, Zulfikarov Sh, Turg'unov O. O'zbekiston Respublikasi saylov tizimi va saylov qonunchiligi. Toshkent, "O'zbekiston", 2014 y
26. Rahmonov A. Saylovoldi tashviqoti teng sharoitlarda o'tkazilmoqda. Xalq so'zi. 2015 y. 13 mart
27. Mustaqil O'zbekiston tarihi. T. 2000 y 2-qism

28. Hidirov Q. Ochiqlik, haqqoniylik va holislik. Xalq soʻzi. 2014y. 30 sentabr
29. Yoqubov Sh, Ahmedov T. Saylovoldi tashviqoti. Toshkent, “Oʻzbekiston”, 2014 y
30. Gʻulom Mirzo, Hidirov S. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi va ommaviy axborot vositalari. Toshkent, “Oʻzbekiston”, 2007 y
31. Gʻulom Mirzo. Saylovlar va ommaviy axborot vositalari. T. 2004y
32. Jonuzaqov A. Ommaviy axborot vositalari jamiyat koʻzgusi. Milliy tiklanish. 2012 y. 8 fevral.
33. Jurnalist v poiskah informatsii otv. red A. Simonov. M. 2004 g